

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“MAKTABGACHA TARBIYA VA BOSHLANG`ICH TA'LIM” KAFEDRASI

ABDURAHMONOVA GULCHEHRA BOBONAZAROVNANING

5141600- Boshlang`ich ta`lim va sport-tarbiyaviy ish ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun

“4- SINFDA ORFOGRAFIK MASHQLARNI TAHLIL QILISHNING SAMARALI
USULLARINI QO`LLASH” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar:

Sh.Turdiqulov

Termiz – 2013

REJA:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

I. BOB. ONA TILI DARSLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA ORFOGRAFIK MASHQLAR TIZIMI.

1.1. Ona tili darslariga qo'yiladigan DTS talablari.

1.2. 4-sinfda beriladigan orfografik mashqlar tizimi.

II. BOB. ORFOGRAFIK MASHQLARNI TAHLIL QILISHNING SAMARALI USULLARIDAN FOYDALANISH.

2.1. Orfografik mashqlarni tahlil qilish usullari.

2.2. 4-sinfda berilgan imloviy mashqlarni tahlil qilish

2.3. Orfografik mashqlarni tahlil qilishda interaktiv metodlardan foydalanish.

2.4. 4-sinfda orfografik mashqlarni tahlil qilish darslarini uyushtirish.

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi ta'lim tizimida olib boriayotgan keng islohatlarning tag zaminida intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlash, raqobatbardosh ta'lim bozorida o'z o'rnini topa olish kabi tushunchalar yotibdi. Mustaqillik yillarida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Unda:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.¹

"Talim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta'lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyliigi, ta'limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ustivorligi, davlat ta'lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi ushun imkoniyat yaratilishi bilan belgilanishi bejiz emas.

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

— o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

— ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

¹ O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni. //Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: „Sharq“,1997.-20-bet.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.¹

Ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadigan boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan islohatlar ham bu boradagi ishlarning dalilidir. Bu borada mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 2012-yilning 16-17-fevral kunlari Toshkentda “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi bo'lib o'tgan Xalqaro anjuman ham ayni shu masalalarga bag'ishlangan.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “...Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Ta'limni tarbiyadan – tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”, deya o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.²

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi o'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olinganligi buning yaqqol dalilidir.

Boshlang'ich ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tabor berish, buning mazmun-mohiyatini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“. //Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent: „Sharq“, 1997. 39-bet.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2011.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar bilimni yanada takomilashtirish, til materialini chuqur o'rganish, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon qila olish uchun orfografik malaka va ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, ona tili darslarida imloviy bilimlarni mustahkamlash ko'p jihatdan orfografik tahlillar bilan olib boriladi. Orfografik mashqlar turli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi hamda turli mashqlarni ozlashtirishda, turli xil til materiallarini organishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4-sinf ona tili darslarida beriladigan orfografik mashqlar salmoqli bo'lib, bu mashqlarni tahlil qilish, tartiblash va o'rganish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan yetarlicha bilim va tajriba talab etiladi. Shu jihatdan mazkur ish uchun tanlangan mavzu dolzarflik kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. 4-sinfda orfografik mashqlarni tahlil qilishning samarali metodlarini izlab topish va ishlab chiqish, ulardan dars jarayonida foydalanish ishimiz oldidagi asosiy maqsadni tashkil etadi. Yuqorida belgilab olingan maqsadlar asosida ish yuritish uchun ishimiz oldida orfografik mashqlar tizimini belgilab olish va tahlil qilishning samarali usullarini qo'llash vazifalari yuklatiladi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Ona tili darslarida orfografik mashqlarni tahlil qilishda o'quvchilarning faolligini oshirish asosiy maqsad qilib olinadi. Shunga asosan, dasrda samaradorlikka erishish uchun turli ta'limiy va didaktik vositalardan foydalanish 4-sinf ona tili darslarida beriladigan orfografik mashqlar tizimida hal qilinishi kerak bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti. Ob'yekt qilib 4-sinf ona tili darslari olindi va ish uchun tanlangan turli xil uslublar mazkur sinfda tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Ona tili darslarida tahlil qilinadigan imloviy mashqlar ob'yektiv xarakterda izohlanadi.

Bitiruv malakaviy ishda qo`laniladigan metodlar. Mazkur ishni yozish jarayonida o`qitishning umumdidaktik tamoyillari asosida qo`llaniladigan metodlardan foydalandik:

- dastlab o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib adabiyotlar bilan ishlash metodidan;
- o`quvchilarning qiziqish va istaklarini hisobga olib suhbat metodidan;
- o`quvchilarning o`zlashtira olish qobiliyatiga mos ravishda ta`lim texnologiyalaridan hamda didaktik o`yinlardan;
- ona tili ta`limida muhim bo`lgan mamoli ta`lim metodidan;
- shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiya usuli hisoblanmish interfaol metodlardan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishning xulosa va bildirilgan tavsiyalaridan umumta`lim maktab o`qituvchilari o`zlarining dars jarayonida, talabalar kurs ishi tayyorlashda, metodistlar ma`ruza matnlari tuzishda shuningdek, pedagogika kollejlari metodist o`qituvchilari va talabalari o`z ishlarida qiziqtirgan savollariga javob topishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Ish kirish, ikki bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ishning ob`ekti, amaliy ahamiyati, ishda qo`llaniladigan metodlar hamda tuzilishi haqida fikrlar bildirilgan. Ishning birinchi bobi “**Ona tili darslariga qo`yiladigan talablar va orfografik mashqlar tizimi**” deb nomlangan bo`lib, unda ona tili darslariga qo`yiladigan DTS talablari hamda 4-sinfda beriladigan orfografik mashqlar tizimi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Ishning ikkinchi bobi “**Orfografik mashqlarni tahlil qilishning samarali usullaridan foydalanish**” deb nomlanadi. Unda orfografik mashqlarni tahlil qilish usullari, 4-sinfda berilgan imloviy mashqlarni tahlil qilish, orfografik mashqlarni tahlil qilishda interaktiv metodlardan foydalanish hamda 4-sinfda orfografik mashqlarni tahlil qilish darslarini uyushtirish kabi masalalar bayon qilingan. Ishning xulosa qismida umumiy xulosa va tavsiyalar o`z ifodasini topgan.

I. BOB. ONA TILI DARSLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA ORFOGRAFIK MASHQLAR TIZIMI.

1.1. Ona tili darslariga qo'yiladigan DTS talablari va o'quv dasturi.

Boshlang'ich sinf ona tili kursini o'rganishning yetakchi lisoniy tamoyili tilning barcha tomonlarini (leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, so'z yasashini) o'zaro bog'liq holda o'rganish hisoblanadi. mazkur tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida o'rganishni ta'minlaydi va til kishilarning aloqa vositasi ekanigini o'quvchilar tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini aniqlashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni aniqlash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchining ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini aniqlash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini, talaffuzda ifodalash ko'nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Bu parametr orqali o'quvshining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida o'qish tezligi, ya'ni berilgan matndan minutiga nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi belgilangan. Sinf dan sinfga o'tish, berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini aniqlash, o'zgalar nutqini eshitish va fikrini aniqlash malakasi o'quvchining og'zaki bayon qilayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini aniqlay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametrning ko'rsatkichlari o'quvchi 10 minutda qancha sahifa matni o'qishi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini aniqlash hamda uni og'zaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

1. Fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
2. Mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va x.k);
3. Tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
4. Tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
5. Imloviy (yozma) savodxonlik;

Mazkur standart mavzularning o'zaro uzviy bogliqligi (integratsiyasi)ni nazarda tutib, o'qish, ona tili ta'limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

I. Boshlang'ich ta'limda ona tili fanining maqsad va vazifalari

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat

a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart

mezon orqali aks ettiriladi: o‘qish texnikasi, o‘zgarar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta‘limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi va o‘quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta‘lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo‘lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo‘lishi.

II. Ta‘lim mazmunini belgilovchi ko‘rsatkichlar

Boshlang‘ich ta‘limda ona tili ta‘limi mazmunining negizi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- nutq va gap, nutq tovushlari, ona tilining fonetik tizimi: tovushlar va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi (fonetik tahlil);
- bo‘g‘in va bo‘g‘in tuzilishi, so‘zlarni bo‘g‘inlab ko‘chirish;
- so‘z va so‘z ma‘nolari (lug‘aviy tahlil - bir ma‘noli so‘zlar, qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar, ko‘p ma‘noli so‘zlar);
- so‘z tarkibi: o‘zak va qo‘shimcha (turlovchi va yasovchi), o‘zaklarda tovush o‘zgarishi, o‘zak va qo‘shimchalar imlosi;
- so‘z nomlarini mazmuniga ko‘ra guruhlash: predmetlar nomini bildiruvchi so‘zlar, predmetlarning harakatini, belgisini, sanog‘ini bildiruvchi so‘zlar, predmetga ishorani ifodalovchi so‘zlar (shaxsga nisbatan–kishilik olmoshi);
- gap, gapning fikr bildirish maqsadiga ko‘ra turlari (darak, so‘roq, buyruq va hishayajonni bildiruvchi gaplar), gapda tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, so‘roq, undov va h.k.), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar : vergul, qavs, ikki nuqta, ko‘p nuqta; gapning tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi

bo'laklar (ega va kesim), gapning asosiy mazmunini to'ldiruvchi bo'laklar (ikkinchi darajali bo'laklar – ularning turi va nomlaridan mustasno);

-gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi, so'z birikmasi, gapning uyushiq bo'laklari, ularning o'zaro bog'lanishi (ohang, bog'lovchi so'z yordamida);

-gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog gaplar, bayon, kichik insho;

-xabarnoma, xat, maqola, tabriknoma, taklifnoma, e'lon, ro'yxat tuzish.

3. O'quvchining o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar

- Gap va nutq, nutq tovushlari, ona tilining fonetik tizimi (fonetik tahlil – unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undoshlar), tovushlar va harflar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutiq belgisi;

- bo'g'in va bo'g'in tuzilishi, so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish;

- so'z va so'z ma'nolari (lug'aviy tahlil - bir ma'noli so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar);

- so'z tarkibi: o'zak va qushimcha (turlovchi va yasovchi), o'zaklarda tovush o'zgarishi, bir necha shakldagi qo'shimchalar (o'zak va qo'shimchalar imlosi);

- so'z – nomlarni mazmuniga ko'ra guruhlash: predmetlar nomini bildiruvchi so'zlar, predmetlarning harakatini, belgisini, sanog'ini bildirivshi so'zlar, predmetga ishorani ifodalovchi so'zlar (shaxsga nisbatan-kishilik olmoshi);

- gap, gapning fikr bildirish maqsadiga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq va hishayajonni bildiruvchi gaplar), gapda tinish belgilarning ishlatilishi (nuqta, so'roq, undov va h.k), yozma nutqda ishlatiladigan muhim (ayrim) belgilar: vergul, qavs, ikki nuqta, ko'p nuqta;

- gapning tuzilishi: gapning asosiy mazmunini bildiruvchi bo'laklar (ega va kesim), asosiy mazmunini to'ldiruvchi bo'laklar (ikkinchi darajali bo'laklar – ularning turi va nomlaridan mustasno);

- gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi, so'z birikmasi (ega va kesim munosabatidan mustasno), gapning uyushiq bo'laklari, ularning o'zaro bog'lanishi (ohang, bog'lovchi so'z yordamida);

- gap va matn, matnning tuzilishi: mavzu, voqea tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog gaplar, bayon, kichik insho, og'zaki, yozma ijodiyot;
- xabar, xat, maqola, tabriknoma, taklifnoma, e'lon yozish, ro'yxat tuzish;
- alifbe davrida kitob bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilish;
- so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish; bo'g'inlab o'qishdan ongli, sidirg'asiga, to'g'ri, tez, ravon va ifodali o'qishga erishish;
- 2-3- sinflarda yozuvchilarning ismi-sharifi, asarlarining nomlari haqida to'laroq tushuncha hosil qilish;
- badiiy asarlarni sharxli, ijodiy va ifodali o'qish;
- asar syujeti voqealari o'rtasidagi bog'lanishni, qahramonlarning fe'l-atvorlarini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;
- o'qigan asarlari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini og'zaki va yozma tarzda izchil ifodalash;
- so'z boyligini oshira borish va nutqida faol q'ollash;
- 4 – sinfda o'qigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish va bayon qilish.

IV sinf

Bilim:

Uyushiq bo'laklar; undalma; so'z turkumlari: ot, otlarning turlanishi, egalik qo'shimchalari, kelishik qo'shimchalari; fe'l, fe'l zamonlari, fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari; sifat, sifat darajalari; son, sanoq son, tartib son.

Ko'nikma:

Ketma-ket kelgan bir xil unlilar imlosini ajrata olish; ketma-ket kelgan bir xil undoshlar imlosini farqlay olish; so'z oxirida talaffuzda tushib qoladigan undoshlar imlosini farqlay olish; so'z ma'nolarini farqlash va ularga so'roq bera olish; so'z va iboralarni to'g'ri yoza olish; gaplarni ifoda mazmuniga ko'ra farqlay olish; gaplarni ohangga rioya qilib o'qish va yozma to'g'ri shakllantira olish; gap tarkibida tinish belgilarini to'g'ri qo'ya olish; gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini farqlay olish; gapni ikkinchi darajali bo'laklar qo'shib kengaytira olish; gapda so'zlarni o'rinli qo'llay bilish; egalik va kelishik qo'shimchalarining

imlosini farqlay bilish; fe'l zamonlari, shaxs-son qo'shimchalarining imlosini ajrata olish; sifat darajalarini to'g'ri qo'llay olish; sanoq son, tartib sonlarning imlosini bilish; matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishini anglay olish; tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalana olish; matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo'llay olish; diktant turlari: ta'limiy va nazorat diktantlarini farqlay olish; ma'nodosh, qarama-qarshi ma'noli, shakldosh, uyadosh so'zlar guruhini tuza olish; so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlay bilish; xabarnoma, xat, tabriknoma, taklifnoma, e'lon yoza olish, ro'yxat tuza bilish.

Malaka:

75-80 so'zdan iborat diktantni to'g'ri yozish; grammatik tahlil qilish (fonetik, so'z tarkibi, morfologik va sintaktik tahlil); xabar, tasvir, muhokama elementli matn yaratish; ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilish; diktant turlarini: saylanma diktant, lug'at, izohli diktant; ko'rsatish, nazorat diktantlarini yozish; matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini anglash; bayon va insho yozish; iltimos, minnatdorchilik, uzr so'rash, taklif qilish, tabrik kabi nutq madaniyatiga doir murojaat qoidalarini bilish.

O`quv dasturi

IV sinf

Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish (170 soat)

1. Gap (6 soat)

Takrorlash. Gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ularning fikr ifodalashi. Gapni tugallangan ohang bilan, buyruq, tinch va his-hayajon ohangida aytilishi; gap ohangiga ko'ra tinish belgilarining ishlatilishi (nuqta, so'roq, undov belgilari); gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi; gapda so'zlarni o'rinli qo'llash, lug'atdan foydalanish malakasini shakllantirish.

2. Gap bo'laklari (7 soat)

Gap. Bosh bo'laklar: Ega va kesim, ularning so'roqlari, ikkinchi darajali bo'laklar, ularning so'roqlari, gapda so'zlarning bog'lanishi; gap bo'laklarini bog'lovchi grammatik vositalar; ohang yordamida bog'lanish (masalan, katta bino,

a'lo o'qing, ikki qadam kabi); so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar yordamida bog'lanish (masalan, hikoyani o'qimoq, daraxtning bargi, senga aytmoqchiman kabi); so'zlar yordamida bog'lanish (va, hamda, lekin, biroq, ammo).

3. Uyushiq bo'lakli gap (11 soat)

Gapda bir bo'lakning birdan ortiq qo'llanishi - uyushiq bo'laklar. Kesim, ega va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushib kelishi; uyushiq bo'laklarni sanash ohangi bilan o'qish; uyushiq bo'laklarning bog'lanishi:

sanash ohangi yordamida va, hamda, ammo, lekin, biroq so'zlari yordamida Uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi;

4. Undalma (6 soat)

Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs ekanligi; undalmaning bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanishi; uning o'ziga xos xususiyati, gap tarkibida gap bo'lagi vazifasini bajarmasligi; gapda boshqa bo'laklar bilan bog'lanmasligi; o'ziga xos undash; chaqirish ohangi bilan aytilishi; gapning boshida, oxirida, o'rtasida qo'llanishi; undalma qatnashgan gaplarda undash yoki chaqirish ohangining kuchli yoki kuchsizligiga qarab, undalmadan so'ng vergul yoki undov belgisining qo'yilishi.

6. Nutq. Matn (5 soat)

Matnning gapdan farqi, matnlarni mazmunan qismlarga bo'lish va matn qismlariga sarlavha qo'yish, matnning tuzilishi; bir kishining nutqi, ikki va undan ortiq kishining nutqi. Matnning o'ziga xos xususiyatlari. Sarlavha. Matnni ifodali o'qish va savodli yozish; tayyor matnni o'qish va qayta hikoyalash. Bayon haqida tushuncha.

7. Tovushlar va harflar (10 soat)

Unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; talaffuzi va yozilishi farq qiladigan unli tovushli so'zlarning talaffuzi va imlosi; jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va imlosi; bir xil qo'sh undoshli so'zlar va ularning imlosi; so'z oxirida qator kelgan undoshli so'zlar va ularning imlosi, x-h tovushli so'zlar va ularning imlosi, tutuq belgili so'zlarning talaffuzi va imlosi, tutuq belgisining so'z ma'nolarini farqlashi. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish; unli

tovushlarning bo‘g‘in hosil qilishi; so‘zlarni bir satrdan ikkinchi satrga bo‘g‘inlab ko‘chirish; so‘zlarni bo‘g‘in, tovush va harf jihatdan tahlil qilish. Alifbo. So‘zlarni alifbo tartibida qayta tuzish. Alifboning ahamiyati.

8. So‘z va so‘z tarkibi (5 soat)

So‘z, uning tarkibiy qismi, o‘zak va qo‘shimchalar, qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turlarini, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar, so‘z tarkibini aniqlashga oid mashqlar, o‘zak va qo‘shimchalarni aniqlash va belgilash. Matndan o‘zakdosh so‘zlarni ajrata olish; bir xil o‘zakli so‘zlar hosil qilish; so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib, o‘zakdosh so‘zlarni hosil qilish; tilning rivojlanib, boyib borishi haqida tushunchani shakllantirish.

9. So‘z turkumlari (3 soat)

Ot. Otning ma‘no turlari, shaxs otlari, narsa otlari, joy otlari. Kim?, nima?, qaer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘lishi; otlarning bosh va kichik harflar bilan yozilishi; otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi; otlarning bosh va ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi. Sifat. Sifatning ma‘no turlari va so‘roqlari (qanday?, qanaqa?). Sifatlarning otga bog‘lanishi, ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi. Son. Sonning necha?, qancha?, nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘lishi; sonning otga bog‘lanishi, kishilik olmoshlari, ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida kelishi.

Fe‘l. Fe‘lning harakat bildirishi va so‘roqlari (nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?). Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar; fe‘lning kesim vazifasida kelishi; ot, sifat va fe‘lga doir o‘zakdosh so‘zlar tizimini tuzish. Shu so‘z turkumlari ichida uchraydigan ma‘nodosh, qarama-qarshi ma‘noli, bir xil shaklli, ko‘p ma‘noli so‘zlar ustida ishlash. O‘rganilgan yasovchilar yordamida bir turkumdan ikkinchi turkumga oid so‘zlar hosil qilish.

10. Ot (40 soat)

Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi. Nutqda otlarning egalik qo‘shimchalarini olgan va olmagan holda qo‘llanishi; egalik qo‘shimchalarining unli va undoshdan keyin qo‘shiladigan shakllari; egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan otlarning talaffuzi va imlosi. Otning kelishik

qo'shimchalari bilan qo'llanishi; matnda va nutqda otlarning bir kelishikda bo'lishi; kelishik qo'shimchali otlarning talaffuzi va imlosi; kelishik qo'shimchali otlarni birikma tarzida yozish; kelishik qo'shimchalarining otni otga, otni fe'lga bog'lashi. Egalik va kelishik qo'shimchalarini chizmalarda belgilash (kitobning varag'i). Ot yasovchi qo'shimchalar. Leksik mashqlar va ular yordamida o'quvchilar nutqini otlar bilan boyitish.

11. Sifat (17 soat)

Shaxs va narsaning rangini, shaklini, hajmini, mazasini, hidini, xususiyatini bildirishi, sifatlarning ot bilan ohang yordamida bog'lanishi; sifatlarning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi; ko'm-ko'k, oppoq, sap-sariq, och sariq, to'q qizil kabi sifatlarning talaffuzi, yozilishi; sifatning belgi ifodalashi (amaliy tushuncha). Sifatlarning yasalishi; leksik mashqlar va ular yordamida o'quvchilar nutqini sifatlardan boyitish.

12. Son (11 soat)

Sonning shaxs va narsaning sanog'ini (miqdorini) va tartibini bildirishi; tartib sonlarning imlosi; sonlarning otga bog'lanib kelishi; sonlarning otga ohang yordamida bog'lanishi; sonlarning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi; sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan birikma tarzida yozish; sonlarning yozuvda harfiy ifoda, arab, rim raqamlari bilan ifodalanishi. Sonlarning yozilishi (sakkiz, sakkizinchi, 8-mart, 2010-yil). Sonlarning metr, gramm kabi so'zlar bilan kelganda bitta so'roqqa javob bo'lishi (amaliy), ikkov, o'ntacha, beshtadan kabi sonlarning yozilishi (amaliy).

13. Kishilik olmoshlari (11 soat)

Kishilik olmoshlari, ularning uch shaxsni ifodalashi; 3-shaxs (birlik va ko'plik) kishilik olmoshlarining ot o'rnida qo'llanishi; kishilik olmoshlarining kim? so'rog'iga javob bo'lishi; kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, imlosi; olmoshlarning bosh va ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi. Kishilik olmoshlaridan nutqda o'rinli foydalana olish.

14. Fe'l (28 soat)

Fe'l, uning kesim vazifasida kelishi; fe'l zamonlari, ularning harakatni uch zamonning birida bajarilishini bildirishi; o'tgan, hozirgi, kelasi zamon fe'llari, qo'shimchalari; uch zamondagi fe'llarning talaffuzi va imlosi. Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi; shaxs-son qo'shimchalarining so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar ekani; shaxs-son qo'shimchalari harakatni uch shaxsning biri tomonidan bajarilishini bildirishi; shaxs-son qo'shimchalarining -yap, -di zamon qo'shimchalaridan so'ng qo'shiladigan shakllari (amaliy); shaxs-son qo'shimchali fe'llarning talaffuzi va imlosi. Fe'l yasovchi qo'shimchalar. Leksik mashqlar va ular yordamida o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish;

15. O'quv yili oxiridagi takrorlash (10 soat)

O'quv yili oxiridagi takrorlash, o'rganilgan bilimlarni eslatish orqali tizimga solish va umumlashtirish maqsadida o'tkaziladi. O'quvchilar bir darsda bir necha turdagi mujassam topshiriqlarni bajaradilar. Takrorlash darslari matn, gap, gap bo'laklari, tovush va harflar, tovushlarning turlari, bo'g'in, alifbo, o'zak, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha, so'z turkumlari bo'yicha o'tkaziladi. O'quvchilar nutqi va yozuvidagi kamchiliklar hisobga olinadi. Bu o'qituvchining boshqa sinflarda ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishini ta'minlaydi. O'quvchilar bilan o'quv yili davomida imlosi ustida ishlanadigan ayrim so'zlar darslik oxiridagi lug'atda berilgan. Darslikda so'zlar ma'nosi berilgan bo'lib, o'quvchilardan ularni o'zlashtirishlari talab qilinmaydi. Bog'lanishli nutq. Nutq, matn va gapni farqlash; og'zaki va yozma nutqni to'g'ri shakllantirish; matn mazmunini qayta hikoyalatish; matndagi asosiy fikrni aniqlay olish; matnning tuzilishini aniqlash, uni qismlarga ajratish; ular orasidagi bog'lanishni izohlay olish; matnga sarlavha topish.

Ta'limiy bayon. Berilgan matn asosida hikoya yozish; muhokama va tasvir janri elementlari qatnashgan bayon yozish; matnni qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozish; tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozish.

Ta'limiy insho. Qismli (qismlarga ajratib berilgan) rasmlar va mavzular bitta rasmda ifoda etilgan ko'rinish asosida, shuningdek, o'qilgan, kuzatilgan, eshitilgan, ko'rilgan voqea va hodisalar asosida material to'plash, reja va shu

asosida insho yozish; bayon va insho rejalarini tuzishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'llash.

Husnixat.

Chiroyli yozish malakalari takomillashtiriladi. Bo'g'in, so'z, gap, matnni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko'chirib yozish; eshitib yozish va mustaqil yozish; matnni yozishda sarlavhaning yozilishiga, xat boshidan boshlash; agarda, so'zlar orasidagi masofaning bir xilligiga, harflarning to'g'ri va aniq yozilishiga, tutashtirilishiga diqqat qaratiladi, hoshiyaga rioya qilish, o'zining va o'zgalarning yozuvini grafik tahlil qila olish.

O'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlar: agronom, akvarium, antenna, artist, astoydil, atele, avtomobil, avtonazoratchi, bashariyat, binafsha, boychechak, brigada, daromad, dastyor, dastlab, dehqon, depo, drijyor, dollar, domino, do'kon, ehtiyoj, ehtiyot, ekskavator, eskalator, e'zozlamoq, fabrika, faoliyat, faxrlanmoq, ferma, festival, firma, fonarcha, futbol, gavjum, giyoh, gramm, go'sht, hadya etmoq, handalak, haqiqat, harbiy, hayvonot, hasharot, hikoya, hofiz, hudud (chegara), hunarmand, hunarmandchilik, hurriyat, ikkita, ilm-ma'rifat, iste'dodli, ishonch, jarroh, jahon, jayron, jonivor, kasseta, kilogramm, kilovatt, kofe, kolleksiya, kosmonavt, kungaboqar, ko'hna (qadimgi), la'l (qimmatbaho tosh), leytenant, madhiya, majmua, masjid, mavsum, mayyor, mehnatsevar, mehribon, mehr-oqibat, metall, metro, me'mor, militsioner, muhandis, murojaat qilmoq, muvaffaqiyat, mo'jiza, na'matak, ne'mat, nomzod, nota, ohangrabo, oromgoh, parashyut, patent, payvandlamoq, piyola, pomidor, portfel, proyektor, pulemyot, qahramon, qandil (lyustra), qimmatbaho, qumursqa, rassom (musavvir), rostgo'y, ruhlanmoq, sabzavot, samolyot, samovar, sellofan, sentner, seyalka, sport, suxandon (diktor), tabiat, tanaffus, tashakkur, taassurot, telefon, tennis, termos, tramvay, transport, trolleybus, ufq, urf-odat, vagon, velosiped, vokzal, voleybol, xursand, xayrlashmoq, xiyobon, xizmatchi, xohlamoq, xokkey, yelpig'ich, yiroq (uzoq), yop-yorug', zehnli, ziyrak, zog'orabaliq, zag'cha, o'qariq, o'chirg'ich, g'amxo'r, g'ijjak, g'ilof, g'o'zapoya, shaxmatchi, shifer, charm, choyshab, cho'tka.

Bu xildagi soʻzlar darslikning oxirida lugʻat sifatida beriladi. DTS talablariga koʻra sinf yakunida oʻquvchilar yozilishi va maʼnosi qiyin soʻzlarni oʻrganish talab etiladi. Bu esa orfografik malakani shakllantirish bilan uzviy bogʻlanib ketgan.

1.2. 4-sinfda beriladigan orfografik mashqlar tizimi.

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida orfografik mashqlar tizimi turli mavsu va til sathlari doirasida berib boriladi. Oʻquvchilarda toʻgʻri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini oʻzlashtirishga asoslanadi. Orfografik mashqlar tizimida imlo qoidalari ustida ishlash bir soʻz yoki soʻz birikmasi doirasida emas, balki umumiylik mavjud boʻlgan butun soʻzlar doirasida amalga oshiriladi. Bu jarayonlar mavzular koʻlamidan kelib chiqqan holda, oʻziga xos xususiyati bilan oʻquvchini mashq yozish jarayonida har bir soʻzni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va imlo qoidasiga amal qilib, belgilangan meʼyorga muvofiq butun soʻzlar guruhini yozish imkonini yaratadi.

Orfografik mashqlar grammatik umumiylik asosida birlashgan soʻzlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini taʼminlaydi.

Yigʻilgan materiallardan shu narsa maʼlum boʻldiki, 4-sinf ona tili darsliklarida orfografik tahlil qilinadigan imloviy mashqlarni grammatik, fonetik, soʻz yasalishi, soʻz turkumlariga oid materiallarni maʼlum darajada bilmasdan turib oʻzlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor boʻlganligi sababli 4-sinfda ham imloviy mashqlar shu qoidaga asos boʻladigan grammatik nazariyaga bogʻliq holda oʻrganiladi. Masalan, shakl yasovchi qoʻshimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar “Ot”, “Sifat”, “Son”, “Kishilik olmoshlari”, “Feʼl” mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bogʻliq holda oʻrganishni taʼminlaydi.

4-sinfda berilgan imloga doir mashqlar ham, shu asosga qurilgan boʻlib, imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan soʻng oʻrganiladi. Masalan,

otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. "Sifat" mavzusini o'rganish *-roq* qo'shimchasining va *qip-qizil, yum-yumaloq* kabi sifatlarning yozilishiga, "Fe'l" mavzusini o'rganishda bo'lishsizlik (*-ma*) va o'tgan zamon (*-di*) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish 4-sinfdagi barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi.

Ma'lumki, orfografik mashqlar sirasiga kiruvchi grammatik-orfografik tahlil va leksik-orfografik tahlillarda ham berilgan materiallarni o'rganish uchun orfografiyaning grammatika va leksikologiya bilan bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz quyida 4-sinf "Ona tili" darsligida berilgan imloga doir mashqlardan bir nechtasini maxsus tizim asosida belgilab oldik. Bu mashqlar ishimiz davomida tahlil qilinadigan va o'rganish uchun asos bo'ladigan mashqlar sifatida qamrab olindi.

1-mashq. O`qing.

KITOB - DO'STIMIZ

Kitobni seving. Kitob yaxshi maslahatchi va o'qituvchi. Kitobsiz bilimli, madaniyatli kishi bo'lib yetishish mumkin emas. Kitobni o'qib, bilimingizni boyiting. Eng yaxshi kitobxon bo'lishga tirishing.

O'zaktosh so'zlarni aniqlang va ko'chiring. O'zak va qo'shimchalarni tegishlicha belgilang. Hozir siz qaysi badiiy asarni o'qiyapsiz?

2-mashq. Hikmatlarni o'qing. Ma'nosini ayting.

Kishi ko'ngli **tartibli** narsalarga moyil bo'ladi.

Tartibsiz narsalardan nafratlanadi.

Beruniy

So'zni ko'p so'zlama, biroz ozroq **so'zla**,

Tuman so'z ma'nosini bir so'zda ko'zla.

Yusuf Xos Hojib

Do‘stga agar qo‘shilsa do‘st-yor,
Orzu og‘ochi bo‘lur **hosildor**.

Jomiy

Ajratilgan so‘zlarning o‘zak va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang
Tartibli, tartibsiz so‘zlari qanday nomlanadi?

tuman — o‘n ming

og‘och — daraxt

3-mashq. Maqol va hikmatlarni o‘qing. Ularning ma‘nolarini izohlang.

1. Do‘st bilan sirdosh bo‘l,
Ishiga doim qo‘ldosh bo‘l.
2. Odobli O‘g‘il — ko‘kdagi yulduz,
Odobli qiz —yoqadagi qunduz.
3. Suvsiz hayot bo'lmas,
Mehnatsiz rohat bo'lmas.
4. Hamisha chiroyli, ochiq va mazmundor so‘zlashga harakat qil.
So‘z yasovchi qo‘shimcha olgan so‘zlarni aniqlab, tarkibiy qismlarga ajrating va tegishlicha belgilang.

4-mashq. O‘qing. Matnda nechta kishining gapi bor? Gaplar limalardan tuzilgan?

— Nelarni yaxshi korursen? — **Humoyundan** so‘radi Bobur.

Humoyun bir lahza o‘ylanib qoldi. Uning yaxshi ko‘rgan narsalari ko‘p edi.

— **Safarda** yurishni, **sayohatni** yaxshi ko‘rurmen. Yaxshi kitob bo‘lsa, erta-yu kech o‘qigim kelur.

Humoyunning bu jihati menga o‘xshabdi, — dedi ichida Bobur...

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qaysi so‘zlarga bog‘langan. Ular nimalar yordamida bog‘langan?

Humoyunning gaplarini ko'chiring

Siz nimani yaxshi ko'rishingizni bir gap bilan ifodalang.

5-mashq. Topishmoqlarni o'qing, javobini toping. Ajratilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chiring.

1. Yorug' **kunni** boshlaydi,

Undan borliq yashnaydi.

2. Shakar kabi oppoq o'zi,

Eritadi hatto **muzni**

3. Ona-bola yemas, ichmas,

Dasturxondan nari jilmas.

4. **Tog'da, bog'da** yashaydi,

Qishda, yozda yashnaydi.

5. **Ko'zga** ko'rinmas,

Qolga tutilmas,

Burunga kirmay qolmas.

So'zlarni bir-biriga bog'lagan qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

6-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib, matnni o'qing. Gapda so'zlarni bog'layotgan qo'shimchalarni aniqlang.

Qadim zamonlar.. odamlar dastxatlari.. toshlar.., daraxt.. po'stloqlari.., sopol va mis., yasalgan ramkachalar.. yozishgan.

7-mashq. Otlarni o'qing, o'zagini aniqlang.

I shaxs.	kitobim	kitobimiz
II shaxs.	kitobing	kitobingiz
III shaxs.	kitobi	kitoblari

So'zlarni yozing. O'zak va qo'shimchalarni belgilang:

So'zlar qanday qismlardan tashkil topgan?

Namuna: kitobim

-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i — egalik qo'shimchalaridir.

Egalik qo'shimchalari shaxs va narsa-buyumlarning qaysi shaxsga qarashlilikini bildiradi.

8-mashq. She'rni ifodai o'qing.

Boshni fido ayla ato qoshig a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuningga aylagil nuri fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Alisher Navoiy

Hikmatdagi ma'nosi tushunarsiz so'zlarning lug'atini tuzing. So'zlarning ma'nosini o'qituvchingizdan bilib ofing.

9-mashq. O'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

TIPRATIKAN

Men tikanlarim bilan uyimga olma, qo'ziqorinlarni tashiyman. Ignam bilan yaproqlarni sanchib to'playman. Ularning orasida tinchgina uxlayman. Bo'ridan ayyor tulkini ignalarim bilan qo'rqitaman. Ignalarim zaharli ilonlarni yengishda yordam beradi.

Turg'unboiy G'oyipov

Matndagi hayvon nomlarini alifbo tartibida yozing.

Oxirgi gapni ko'chiring. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, tagiga chizing.

O'zak va qo'shimchalami tegishlicha belgilang.

10-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib, matnni o'qing. Gapda so'zlarni bog'layotgan qo'shimchalarni aniqlang.

Qadim zamonlar.. odamlar dastxatlari.. toshlar.., daraxt.. po'stloqlari.., sopol va mis., yasalgan ramkachalar.. yozishgan.

11-mashq. O'qing. Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi qo'shimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna: *Gullarim*

Gultojlarim bo'lmali,	Marg'ilonning atlas i,
Ildizlarim burmali,	Kamalakning nusxasi .
O'rtagina bo'yim bor,	Omon bo'lsin to'qigan
Sog' bo'l, degan o'yim	bor. Uning chevar ustasi .

Kavsar Turdiyeva

Habib Rahmat

Kamalakning nusxasi iborasining ma'nosini qanday tushunasiz? *Egalik qo'shimchalari shaxs va narsa-buyumning qaysi shaxsg.-i qarashlilikini bildirayotganini ayting.*

12-mashq. O'qing. Egalik qo'shimchalarini olgan otlarni aniqlang, ularni ko'chiring. Qavs ichida shaxsini ko'rsating.

1. Uzun dala yo'lida keksa bobo ikki sevikli nevarasi bilan birga borardi.
(*Mirmuhsin*) 2. Kapalak, kapalak, qanotlaring ipakday. (*Mirmuhsin*)

1. Miya kabi shaklim bor,
Boshim to'la aqlim bor.
Meni yegan donishmand
Bo'lur degan naqlim bor

Topishmoq.

Erkin Vohidov

13-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida ko'rsatilgan egalik shakllarini qo'yib, she'rni ko'chiring.

Jajjigina barmoqchalar..(II sh.),
Harakatdan to'xtamas bir zum.

Sen chizgan gul, bayroqchalar..(II sh.),
 Bayram uchun sovg'adir, qiz..(I sh.)
 Ona..(II sh.) shunda ochar keng quchoq,
 Go'yo ko'kka yetgandek bosh..(III sh.).
 Sensan doim unga ovunchoq,
 Sen onangning kichik yo'ldosh..(III sh.).

Ilyos Muslim

14-mashq. O'qing. Egalik qo'shimchalari narsa va shaxsning qaysi shaxsga tegishlilikini bildiriyapti?

Jajji so'ziga ma'nodosh so'z topib ayting.

Jay//, ovunchoq so'zlarining yozilishini yodingizda tuting.

-m, -im, -ng, -ing, -i, -si— egalik qo'shimchalari birlik ma'nosini bildiradi.

15-mashq. Hikoyani o'qing. Hikoya kim haqida ekan?

Shohistaning tug'ilgan kuni edi. U Oqiljonni mehmonga taklif qildi. Oila a'zolari qanday sovg'a olib chiqishni maslahatlashdi. Oqiljonning buvisi, oyisi, akasi har xil narsalarni aytishdi.

Oqiljon o'zi ekan gullarini avaylab qirqdi-da, Shohistaga olib chiqdi...

Farhod Musajonov

16-mashq. She'rni ko'chirib yozing.

1.Oq paxtaday sochingiz,

Omon bo'lsin boshingiz,

Ayta qoling, buvijon,

Hozir necha yoshingiz.

So'zlaringiz ko'p qiziq,

Yuzingiz nega chiziq?

Achomlasam, buvijon,

Bag'ringiz muncha issiq?

Po'lat Mo'min

2. O‘smirlar davlatimiz,
Keksalar savlatimiz.

Quddus Muhammadiy

Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni aniqlang. O‘zak va qo‘shim- chalarini tegishlicha belgilang. Ikkinchi she‘rning ma‘nosini tushuntiring. Davlat so‘zi qanday ma‘noda qo‘llangan?

17-mashq. Matnni o‘qing. Egalik qo‘shimchalarining shaxs-sonini ayting.

Qobil boboning ikki nabirasi — Shavkatjon bilan Shuhratjon tortishib qolishdi. Ular bobosining yoniga borib, qaysi birimiz odobli bolamiz, deb so‘rashdi.

— Oldin hassamni olib kelib bering. Keyin kim odobli bola ekanini aytaman, — dedi Qobil bobo.

—Yo‘q, avval aytasiz, — dedi Shavkatjon oyoqlari bilan polni tepib.

Shuhratjon bobosining hassasini keltirib berdi. Bobosining qo‘lidan ushlab, turishiga yordamlashdi.

Qobil bobo Shuhratjonning peshonasidan o‘pib, minnatdorchilik bildirdi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni ko‘chiring, ularning o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang. Otlardagi egalik qo‘shimchalarining shaxs- sonini qavsda ko‘rsating. Kim odobli ekanini siz ayta olasizmi?

18-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur egalik qo‘shimchalarini qo‘yib ko‘chiring.

Bizning bobolar.. kimlar bo‘lgan? Ular qanday zotlar bo‘lishgan?

Bizning bobola yulduzlar sir.ni topgan Mirzo Ulug‘bek bo‘lgan. Jahon matematsika fan.ga asos solgan al-Xorazmiy bo‘lgan. Dunyo xalqla .ning bosh ni qovushtirgan buyuk Amir Temur bolgan. Biz yosh avlod ota-bobolar ga munosib bo‘lib yetishsak, ism. jism.ga munosib bo‘libdi, degan nom *olamiz*.

Shukrullo

***Otlarning qaysi shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llanganini ayting. Jahon, al-Xorazmiy, jism so‘zlarining yozilishini yodingizda tuting.**

19-mashq. Ko'chiring. Otlarni aniqlang. Egalik qo'shimchasi qo'shilgan otlarning o'zak va qo'shimchalarini belgilang.

1. Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina adabiyotni sevardi. Ularning uyida she'rxonlik kechalari olkazilardi. Shular sababli Alisher kitob bilan qattiq do'stlashdi. (*Oybek*)

2. *Hidi, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorgudek shirinligidan ona-yurtim qovuni ekanligini angladim, otamning bog'idagi polizda shunaqa shakarpalak ko'p bo'lardi.*

(*Xayriddin Sultonov*)

Egalik qo'shimchalari qaysi tovush bilan tugagan otlarga qo'shilganini ayting
20-mashq. Matnni o'qing. Har bir gapda takrorlanib kelayotgan kitob so'zining qaysi kelishikda ekanini ayting. Uni ajratib ko'rsatilgan so'z bilan birga ko'chiring.

Kitob o'z do'stining dilini **ogritmaydi**. Kitobning **suhbatidan** inson foyda topadi. Bunday fayzli foydani boshqa hech qayerdan topib bo'lmaydi. Kitobni **o'qigan** inson o'tmishdan va kelajakdan ogoh bo'ladi. Ajdodlarimiz o'z merosini kelajak avlodga kitoblarda **qoldiradi**. Inson uchun kitobdan **azizroq** va **yoqimliroq** suhbatdosh yo'qdir. Shuning uchun ham: „Kitob aql qal'asidir“, deganlar.

Muhammad Jabulrudy

Kelishik qo'shimchalari qanday vazifa bajaryapti? **qal'a** —qasr, qo'rg'on

21-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchani qo'yib, topishmoqlami o'qing, javobini toping.

1. Ship., bizga qarab turar,

Nurlari.. tarab turar.

2. Dam oladi kunduzi

Xonadon.. yulduzi.

3. Ikki yaproq bir tan..

Kezar yoz.. chaman..

4. O‘t.. yonmaydi,
Suv.. botmaydi.

5. Ot.. baland,
It., past.

Ko'chiring. Otlarning qanday so'roqlarga javob bo'lishini ayting. Qaysi so'zlarning talaffuzi bilan yozilishi mos kelmaydi? Shu so'zlarning yozilishini yodingizda tuting.

22-mashq. Matnni o'qing. Turkiy til deganda qaysi tillarni tushunasiz? So'roqlar yordamida otlarni toping.

TURKIY TIL O‘LKASI

— Oftob, Quyosh, Kun, Shams degan nomlarim bor. Men oltin aravamda hamma **o‘lkalarni** kezdim. Biroq turkiy til o'lkasi bo'lmish O‘zbekiston meni o'ziga tortadi.

— Mening ham ismlarim Oftob bibinikidan kam emas. **Kitoblarda** Koinot, Falak, Fazo, Ko‘k deb qo‘llaydilar. Suhbatlarda Osmon deb ishlatishadi. Ularning suhbatiga **chechaklar, qushlar** aralashdi. Ular ham turkiy til o‘lkasi O‘zbekistonda yashayotgan liklaridan quvonishardi.

(Olloyor Begaliyevdan)

Ajratilgan otlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

Osmon, Quyosh so'zlarining ma'nodoshlarini topib ko'chiring.

23-mashq. „Tulki va Turna“ ertagidan olingan parchani o'qing.

Tulkining boshiga musibat tushdi. Tomog‘iga suyak qadaldi.

Turna Tulkining tomog‘idan suyakni olib tashladi. Tulki o'limdan qutuldi. Ular do‘st bo'lishdi.

Ko'chiring. Otlarni aniqlab, qaysi kelishikda ekanini qavs ichida ko'rsating.

Otlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang.

Turna to'g'ri ish qildimi?

Matndagi otlarni qavsda berilgan kelishikda qo'llab o'qing. Shu otlarni o'zi

bog'langan so'z bilan ko'chiring.

24-mashq. Kelishik qo'shimchalarini belgilang.

Singlim menga Orif bobo.. (q. k.) bog'idagi o'rikning turshagi.. (ch. k.) yuboribdi. Bir hovuch turshak.. (t. k.) qo'lim.. (j. k.) oldim-u, Orif bobo.. (t. k.) esladim. Orif bobo erta bahor.. (ch. k.) qishli-qirovli kungacha bog'.. (o'-.p. k.) g^fimirlab yurardi. Orif bobo allaqachon olamdan o'tgan. Undan „Orif bobo.. (q. k.) bog'i“ qoldi. Inson.. (q. k.) qo'li o'z egasi.. (j.k.) haykal yasab ketar ekan.

(Xudoyberdi To'xtaboyevdan)

Turshagi, singlim so'zlarida qanday tovush o'zgarishi yuz berdi?

Nima uchun?

Matndagi ma'nodosh so'zlarni toping.

25-mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan otlarga so'roq bering. Ular qaysi kelishikda qo'llangan?

Oftob bo'lsa qanday soz,

Qushlarning to'yi qizir.

O'ynoqi **ariqlarning**

Yoqimli kuyi qizir.

Habib Rahmat

Qaratqich kelishigidagi otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? To'yi, kuyi so'zlari qanday ma'noda qo'llangan?

26-mashq. Matnni o'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni aniqlang. Kelishik qo'shimchasi otni qaysi so'z bilan bog'lagan?

Barnoning lunjlari osildi. U buvisining oldiga keldi:

— Buvi, Munira yomon qiz ekan. Ko'chamizdagi gulni ko'chirib ketdi.

— Munira ko'chamizning fayzini buzibdi-da, — dedi buvisi.

Shu kuni Barnoning chiroyi ochilmadi.

Kechga yaqin gulzorga kirdi. Gulsafsarning tagini yumshatdi, uni asta ko'chirib oldi. So'ng Munira ko'chirib ketgan gulning o'rniga o'tqazdi.

(Latif Mahmudovdan)

*Qaratqich kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan soz bilan birga ko'chiring.
Qaratqich kelishigi qo'shimchasini tegishlicha belgilang.*

Namuna: Barnoning lunjlari

27-mashq. Berilgan otga mos otlar tanlab, birikma tarzida yozing.

Kitob, gul, osmon, yurak, tirnoq

Birikmalardagi qaysi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?

28-mashq. Matnni o'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni aniqlang.

Gulnozning o'zi aqlli qiz. U xolasining uyiga borsa, jim o'tirmaydi. Uylarni yig'ishtiradi. Bir kuni xolasi Gulnozni o'zi ishlaydigan fabrikaga olib bordi. U yerda ayollar bolalarning ko'ylaklarini tikishayotgan edi. Gulnoz chevarlarning ishini kuzatdi.

Tikuvchilardan biri ko'ylakning yoqasini, ikkinchisi yonini tikardi. Gulnoz ko'ylakni bir kishi tikadi deb o'ylardi. Endi bilib oldi, bitta ko'ylakni bir necha kishi tikar ekan.

Gulnoz ko'ylagini kir qilmasdan kiyishga ahd qildi.

Xayriddin Saloh

Qaratqich kelishigidagi otni o'zi boglangan so'z bilan birikma tarzida ko'chiring.



Qaratqich kelishigidagi otga mos otlar topib, birikma tuzing va yozing.

29-mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan otlarga so'roq bering. Ular qaysi kelishikda qo'llangan?

KANAREYKA

Rashid ayvonda **kanareykasini** tomosha qilib o'tirardi. O'rik tomondan boshqa kanareykaning ovozi eshitilardi. Qo'shnisi chap qo'lida bo'sh qafasni ushlagancha u yoqdan bu yoqqa alaglardi. Rashid tezlik bilan **qafasini** hovliga olib chiqdi. Qo'lga **matrapni** oldi. Kanareyka qafasning ustiga qo'ndi. Rashid matrapni qushning ustiga tashladi. U qushni qo'lga oldi-da, uyiga qarab chopdi.

Sh. Mamajonov



Tushum kelishigidagi otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? Tushum kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring.

matrap — bedana, kaptar tutish uchun ishlatiladigan asbob, to‘r.

30-mashq. O'qing. Tushum kelishigi so'roqlariga javob bo'lgan otlarni aniqlang

Biz Kamalaktog‘ etaklariga o‘tovlarni tikdik. Bu yerda sayohatga chiqqan bolalarni uchratdik.

Men tunda safarda foydalaniladigan maxsus xalta-to‘shak- ni to‘shab yotdim. Ertalab nonushtadan so‘ng shifokor yigit bizlarga yigirma xil dorivor giyohlarni ko'rsatdi. Fotohavaskor o'qituvchi bu yerda yashaydigan turli hayvonlarning suratlarini olgani haqida so'zladi. Men esa yon daftarimni bu yerlardan olgan taassurotlar bilan to‘ldirdim.

A. Aminov

Tushum kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan birikma shaklida ko'chiring. Tushum kelishigi qo'shimchasini tegishlicha belgilang.

Tushum kelishigi qanday vazifa bajaryapti?


31-mashq. Matnni o'qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

Tabiatni va jonivorlarni asrash hamda ko'paytirish maqsadida respublikamizda o‘nga yaqin qo'riqxonalar tashkil tilgan. Bular orasida eng kattasi Hisor qo‘riqxonasidir. Bu yerda qor va ko‘llarni, tiniq va loyqa oqimli asov soylarni, yilda bir bor inson qadami tegadigan so‘qmoqlarni, ulkan daraxtlarni, nodir o'simliklarni, chuqur daralarni, sirli g‘orlarni, kamyob parrandalarni, zangori yaylovlarni uchratasiz.

A. Aminov

Tushum kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Uning gapdagi vazifasini ayting.

32-mashq. Berilgan otga mos soʻz topib, birikma tuzing.



33-mashq. Matnni oʻqing. Soʻroqlar yordamida tushum kelishigidagi otlarni toping. Ularni oʻzi boglangan feʼl bilan alohida-alohida birikma tarzida koʻchiring.

HAYVONOT BOGʻIDA

Yakshanba kuni dadam bilan hayvonot bogʻiga bordik. U yerda turli hayvonlarni, xilma-xil qushlarni, baliqlarni va boshqa jonivorlarni koʻrdik. Hayvonot bogʻida choʻmilayotgan oq ayiqni, chiroyli patli tovusni, sakrab, yugurib yurgan maymunni, uxlab yotgan sherni tomosha qildik.

(Gʻunchadan)

34-mashq. Sheʼrni oʻqing va koʻchiring.

Rizvon xola qoʻshniga
 Chiqqanida elakka.
 Kamzulining tugmasi
 Tushib qoldi yoʻlakka.
 Chumolilar toʻplanib,
 Majlis qurar shoshilib,
 — Bir, ikki, uch, koʻtardik
 — Tegirmonning toshini.

Tursunboy Adashboyev

Joʻnalish kelishigidagi otlarni aniqlang. Otlarga joʻnalish kelishigi qoʻshimchalarining -ga, -ka, -qa shaklida qoʻshilish sababini ayting. Nima uchun chumolilar tugmani tegirmonning toshi deb oʻylashdi?

35-mashq. O'qing. Ajratilgan otlarga so'roq bering. Ular qaysi kelishikda qo'llangan?

Anvarda ertak kitoblar ko'p. Bir **kitobida** „O'rmonga nega o't ketdi?“ ertagi bor, Anvar uni o'rtoqlariga gapirib berdi:

— Qadim zamonda bepoyon **o'rmonda** turli jonzotlar inoq yashar ekan. Sichqon **oftobda** erkalanib yotgan mushukning **bag'rida** o'ynarkan. Bo'ri qo'zichoqni o'z bolasi- dek yalab-yulqar ekan. Tulki jo'jalarni don-dun bilan siylarkan. Yo'lbars kiyik bolalarini yelkasiga mindirib, **qirlarda** sayr qildirar ekan...

Anvar shu yerga kelganda ertakni to'xtatdi.

36-mashq. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, she'rni o'qing. Kelishik qo'shimchalarini olgan otlarni o'zi boglangan so'z bilan kelishiklar tartibida yozing.

Qora qushlar qo'narlar,
 Majnuntol.. shoxi...
 Boshin suv.. egarlar,
 Boqmay sira ohiga.
 Rahmi kelib bulut...
 Yig'lab to'kar yoshi.. ,
 Qushlar qochar, majnuntol
 Ko'taradi boshi.. .
 Bulut.. orasidan
 Quyosh kulib qaraydi.
 Majnuntol.. yuvilgan
 Sochlari.. taraydi.

Erkin Vohidov

37-mashq. O'qing. Sifatlarni toping. Avval yasovchi qo'shimchali sifatlarni, so'ng yasovchi qo'shimchasiz sifatlarni ko'chiring.

TURG`UN BOBOM

Keng, bepoyon vodiylarni
 Ko'rkam yoz bezar.
 Tun qo'ynida Turg'un bobom
 Dalani kezar.
 O'zi juda ishga chaqqon,
 Taniqli suvchi.
 Uni sevar har dehqoni,
 Har bir o'quvchi.

J. Rahim

38-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib o'qing. Shu fe'llarni ko'chirib, aytilishi va yozilishini tushuntiring. o'tgan zamon qo'shimchalarining tagiga chizing.

Suvi qurigan ariqlarning bo'yiga 22- maktab o'quvchilari 200 tacha chinor ekib ketish.. (-di, -ti). Chinorlar ham gaplashar ekan:

— Hammalaring eson-omon joylashib oldilaringmi? — dedi novcha nihol.

— Bolalar ekishayotganda mening bitta shoximni sindirib qo'yish.. (-ti, -di),
 — deb zorlan.. (-di, -ti) singan niholcha.

Ertasiga quyosh nurini soch.. (-di, -ti).

Bir necha kundan so'ng niholchalar: Suv! Suv! Suv! — deb baqirish.. (-di, -ti).
 Ularning ovozini hech kim eshitmadi. Nihollar tik turgancha qotib qoldilar.

(Xudoyberdi To'xtaboyevdan)

39-mashq. Nuqtalar o'rniga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring. Fe'l yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

Shar..., soz..., shod..., o't..., oq..., tinch..., zavq..., chir..., viz..., bir..., ov... .

-la, -ilia, -lan, -lash fe'l yasovchi qo'shimchalari bilan nechtagacha fe'l yasay olasiz? O'zingizni sinang. Topgan fe'llaringizni yozing.

Namuna: *yordamlash — ko‘maklash,*

40-mashq. Chiziqalar o‘rniga mos fe‘l qo‘yib o‘qing. Ularning gapdagi vazifasini ayting. Kesim orqali so‘roq berib, gapning egasini toping.

Necha yuz yillar davomida yaratilgan bog‘larimiz_____ .

Buning oqibatida bozorlarda yong‘oq, mayiz, turshaklar va_____ .

Aziz bolajonlarim! „Sharq jannati“ deb atalgan bog‘larimiz o‘z qadrini . Siz ham yangi bog‘ yaratishga o‘z hissangizni__.

Ega va kesimni birga ko‘chiring. Fe‘llardagi yasovchi qo‘shimchani belgilang.

Qo‘yish uchun fe‘llar: kamaydi, buzildi, qimmatlashdi, qo‘shing, topsin.

Mazkur mashqlar tizimi amaldagi 4-sinf darsligi materiallari asosida tuzilgan. Ushbu mashqlarni tavsifiy guruhlarga ajratib tahlil qilish va tahlil usullarini eng samarali metodlar asosida olib borish tizimi ishimizning galdagi asosiy vazifasi hisoblanadi.¹

Birinchi bob bo‘yicha chiqarilgan xulosa shuki, 4-sinf ona tili darlari oldiga qo‘yilgan davlat talablari va orfografik mashqlar tizimi yuqorida ta‘kidlanganidek, ona tili ta‘limining turli bo‘lim va mavzularida, xususan, so‘z turkumlarini o‘rganishda, shu asosda so‘z tarkibini o‘rganish mavzularida, kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishini o‘rganishda berilgan bo‘lib, orfografik mashqlarning barcha turlari: leksik-orfografik mashqlar, morfologik-orfografik mashqlar, orfografik-sintaktik, analitik-sintetik mashqlar, ko‘chirib yozuv mashqlarining bir nechta turlari hamda aralash tipdagi mashqlar o‘rin olgan. Bu mashqlar o‘quvchilarning yoshi, bilim olish qobiliyati, tahlil qila olish usullari hamda axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olib tuzib chiqilgan. Orfografik mashqlarni tahlil qilishning samarali yo‘llari va qo‘llash usullarini yoritish ishimiz oldida turgan galdagi vazifadir.

¹ R. Ikromova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili (4-sinf uchun darslik). - T.: O‘qituvchi, 2009.

II. BOB. ORFOGRAFIK MASHQLARNI TAHLIL QILISHNING SAMARALI USULLARIDAN FOYDALANISH.

2.1. Orfografik mashqlarni tahlil qilish usullari.

O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv - maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejimli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir orfografik malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

Orfografik malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez qilish ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash

usulidan foydalanish hamda soʻz va soʻz shakllarini maʼlum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim oʻrin tutadi.

Masalan, darslikda berilgan mashqda.

Topishmoqlarni oʻqing, javobini toping. Ajratilgan soʻzlarni oʻzi bogʻlangan soʻzlar bilan koʻchiring.

1. Yorugʻ **kunni** boshlaydi,

Undan borliq yashnaydi.

2. Shakar kabi oppoq oʻzi,

Eritadi hatto **muzni**

3. Ona-bola yemas, ichmas,

Dasturxondan nari jilmas.

4. **Togʻda, bogʻda** yashaydi,

Qishda, yozda yashnaydi.

5. **Koʻzga** koʻrinmas,

Qoʻlga tutilmas,

Burunga kirmay qolmas.

Soʻzlarni bir-biriga bogʻlagan qoʻshimchalarni tegishlicha belgilang.

Tahlili: *kun* oʻzak, *-ni* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, *muz* oʻzak, *-ni* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, *dasturxon* oʻzak, *-dan* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, *togʻ* oʻzak, *-da* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, *bogʻ* oʻzak, *-da* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, *koʻz* oʻzak, *-ga* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, *qoʻl*-oʻzak, *-ga* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha, *burun*-oʻzak *-ga* sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha.

Shu singari orfografik mashqlar ustida ishlash oʻquvchilarda soʻz va gap doirasida oʻrganadigan imloviy bilimlarni hamda nutq oʻstirish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Imlo qoidalari ustida ishlash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish, so'zning qaysi qismini, qaysi so'z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O'quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o'qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo'yicha ishlanadi. Bunda o'quvchilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo'linadi (Aslida o'quvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qo'yadilar). O'quvchilar o'rganilgan qoidaga misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo'li bilan uni yangi til materialiga, ya'ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo'lishsizlik qo'shimchasi (*-ma*) ning yozilishini deduktiv yo'l bilan o'rgatish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (*-ga*) ning oxiri *-k* bilan tugagan otlarga *-ka*, *-q* bilan tugagan otlarga *-qa* shaklida qo'shilishi haqidagi qoidani induktiv yo'l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishini o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratqich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otning fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi.

24-mashq. Kelishik qo'shimchalarini belgilang.

Singlim menga Orif bobo.. (q. k.) bog'idagi o'rikning turshagi.. (ch. k.) yuboribdi. Bir hovuch turshak.. (t. k.) qo'lim.. (j. k.) oldim-u, Orif bobo.. (t. k.) esladim. Orif bobo erta bahor.. (ch. k.) qishli-qirovli kungacha bog'.. (o'-.p. k.) g'imirlab yurardi. Orif bobo allaqachon olamdan o'tgan. Undan „Orif bobo.. (q. k.) bog'i“ qoldi. Inson.. (q. k.) qo'li o'z egasi.. (j.k.) haykal yasab ketar ekan.

(Xudoyberdi To‘xtaboyevdan)

Turshagi, singlim so'zlarida qanday tovush o'zgarishi yuz berdi? Nima uchun?

Matndagi ma'nodosh so'zlarni toping.

Shu kabi mashqlarda kelishik shakllarining mosini gap tarkibida qo'yish, gap tahlilida orfografik malaka hosil qilinadi. Bu albatta qoida asosida amalga oshiriladi.

O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish xiyla qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi. Quyidagi mashqda egalik qo'shimchalarini olgan otlarni aniqlash va tahlil qilish usullari o'z ifodasini topgan.

7-mashq. Otlarni o'qing, o'zagini aniqlang.

I shaxs.	kitobim	kitobimiz
II shaxs.	kitobing	kitobingiz
III shaxs.	kitobi	kitoblari

So'zlarni yozing. O'zak va qo'shimchalarni belgilang: So'zlar qanday qismlardan tashkil topgan?

Namuna: kitobim

-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i — egalik qo'shimchalaridir

Egalik qo'shimchalari shaxs va narsa-buyumlarning qaysi shaxsga qarashligini bildiradi.

Qoida ustida jamoa bo'lib ishlash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin.

Qoidani bilib olish o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog'liq. Qoida asosida hosil bo'lgan aniq tasavvur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni to'g'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim. M: *10-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib, matnni o'qing. Gapda so'zlarni bog'layotgan qo'shimchalarni aniqlang.*

Qadim zamonlar.. odamlar dastxatlari.. toshlar.. daraxt.. po'stloqlari.., sopol va mis., yasalgan ramkachalar.. yozishgan.

Imloviy malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga, tegishli o'rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o'zlashtiriladi. Metodikada imloga oid mashqlarga: 1) grammatik-orfografik tahlil; 2) ko'chirib yozuv; 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Shunday qilib, orfografik mashqlarni tahlil qilishda grammatik tushunchalarni ham o'rgatish, shu bilan birga, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi.

2.2. 4-sinfda berilgan imloviy mashqlarni tahlil qilish

4-sinf "Ona tili" darsliklarida orfografik tahlil qilinadigan imloviy mashqlarni grammatik, fonetik, so'z yasalishi, so'z turkumlariga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor bo'lganligi sababli 4-sinfda ham imloviy mashqlar

shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar "Ot", "Sifat", "Son", "Kishilik olmoshlari", "Fe'l" mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi. Ob'yekt qilib olingan sinf darsligida berilgan orfografik mashqlarni tahlil qilish, avvalo, imlo qoidasi ustida ishlash va morfologik-sintaktik tahlil qilishga qaratilgan.

4-sinfda berilgan mashlarning salmoqli qismini *ko'chirib yozuv* mashqlari tashkil etadi. Ko'chirib yozuv ko'rib idrok qilingan so'z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang'ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo'l qo'ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ko'chirib yozuv ko'nikmasi shakllantirilishi kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmani hosil qilish maqsadida o'qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko'chirib yozuvni izchillik bilan o'rgatib boradi.

O'quvchilarda ko'chirib yozuv ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Ko'chirib yozishdan oldin ko'chirib yozadiganingni yaxlit o'qib chiq.
2. Har bir gapdagi so'zlarni qismlarga ajrat va ichda talaffuz qil.
3. Ko'chirib yozganingni asliga solishtir va xatolaringni to'g'rila.

Ko'chirib yozuv uchun so'z, alohida gap va matnlardan foydalaniladi. Masalan:

9-mashq. O`qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

TIPRATIKAN

Men tikanlarim bilan uyimga olma, qo'ziqorinlarni tashiyman. Ignam bilan yaproqlarni sanchib to'playman. Uning orasida tinchgina uxlayman. Bo'ridan ayyor tulkini ijnalarim bilan qo'rqitaman. Ignalarim zaharli ilonlarni yengishda yordam beradi.

Turg'unboy G'oyipov

Matndagi hayvon nomlarini alifbo tartibida yozing. Oxirgi gapni ko'chiring. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab, tagiga chizing.

O'zak va qo'shimchalarni tegishli belgilang.

Mashq shartlaridan ma'lumki, bunda ko'cirib yozuv, orfografik-sintaktik tahlil qilish nazarda tutiladi. Shu kabi tahlil usullari mashqni o'rganish va til materiallarini tushunish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qituvchining qo'ygan maqsadiga bog'liq holda ko'chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko'riladi; bunda imlosi qiyin so'zlarni izohlab o'qish, so'zning nima uchun shunday yozilishini asoslash, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko'nikma qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida nazorat (tekshiruv) ko'chirib yozuv o'tkaziladi.

Ko'chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so'z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishni yaxshi bilib olish imkonini beradi. Chunki vazifaning xarakteri imloviy malakani shakllantirishga nazariy asos bo'ladigan grammatik, fonetik bilimlarni faollashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o'stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ko'chirish. O'zakdosh so'zlarni aniqlab, o'zakni ajratish.
2. Tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib ko'chirish, qanday qo'shimcha ekanini aytish; yozilishini tushuntirish.
3. Matn mazmuniga mos so'zni qavs ichida berilgan so'zlardan topib qo'yib ko'chirish. Shu so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.
4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish va yozish.
5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzish.
6. Tanlab ko'chirish (Berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so'z turkumini; ot va fe'ldan yoki ot va otdan, sifat va otdan tuzilgan so'z birikmalarini ko'chirish).

M: 11-mashq. O'qing. Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi qo'shimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna: *Gullarim*

Gultojlarim bo'lmali,

Marg'ilonning **atlas**i,

Ildizlarim burmali,

Kamalakning **nusxasi**.

O'rtagina **bo'yim** bor,

Omon bo'lsin to'qigan

Sog' bo'l, degan **o'yim** bor.

Uning chevar **ustasi**.

Kavsar Turdiyeva

Habib Rahmat

Kamalakning nusxasi iborasining ma'nosini qanday tushunasiz? *Egalik qo'shimchalari shaxs va narsa-buyumning qaysi shaxsga qarashlilikini bildirayotganini ayting.*

12-mashq. O'qing. Egalik qo'shimchalarini olgan otlarni aniqlang, ularni ko'chiring. Qavs ichida shaxsini ko'rsating.

1. Uzun dala yo'lida kekxa bobo ikki sevikli nevarasi bilan birga borardi. (*Mirmuhsin*) 2. Kapalak, kapalak, qanotlaring ipakday. (*Mirmuhsin*)

3. Miya kabi shaklim bor,
Boshim to'la aqlim bor.
Meni yegan donishmand
Bo'lur degan naqlim bor

Topishmoq.

Erkin Vohidov

Ushbu mashq orqali ifodalangan aralash turdagi qoidalar eslanadi va orfografik malaka hosil bo'ladi.

13-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida ko'rsatilgan egalik shakllarini qo'yib, she'rni ko'chiring.

Jajjigina barmoqchalar..(II sh.),

Harakatdan to'xtamas bir zum.

Sen chizgan gul, bayroqchalar..(II sh.),

Bayram uchun sovg'adir, qiz..(I sh.)

Ona..(II sh.) shunda ochar keng quchoq,
 Go‘yo ko‘kka yetgandek bosh..(III sh.).
 Sensan doim unga ovunchoq,
 Sen onangning kichik yo‘ldosh..(III sh.).

Ilyos Muslim

Ushbu ko‘chirib yozuv mashqlari o‘quvchilarda orfigrafik malakani shakllantirish bilan birga, ularda topqirlik va ziyraklik kabi tushunchalar namoyon bo‘ladi.

21-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur qo‘shimchani qo‘yib, topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.

1. Ship., bizga qarab turar,

Nurlari.. tarab turar.

2. Dam oladi kunduzi

Xonadon.. yulduzi.

3. Ikki yaproq bir tan..

Kezar yoz.. chaman..

4. O‘t.. yonmaydi,

Suv.. botmaydi.

5. Ot.. baland,

It., past.

Ko‘chiring. Otlarning qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini ayting. Qaysi so‘zlarning talaffuzi bilan yozilishi mos kelmaydi? Shu so‘zlarning yozilishini yodingizda tuting.

Mazkur imloviy savodxonlikni ta‘minlovchi mashqlar tahlili natijasida o‘quvchilarda topqirlik, orfografik malaka hamda morfologik tushuncha takomillashadi. So‘z turkumlarini aniqlash usullari rivojlanadi. Bu kabi tahlil usullarida turli didaktik o‘yinlar va metodlardan foydalanish o‘quvchilarda mashq bajarishga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi.

Diktant ham orfografik mashqlar tizimiga kiruvchi maxsus nazorat shakli hisoblanadi. Diktant eshitib idrok qilingan so‘z, gap, matnni yozishdir.

O'quvchilarning og'zaki yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O'quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o'z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Boshlang'ich sinflarda diktant uchun matn tanlashda bir qancha tamoyillarga rioya qilish zarur:

1. Matnning monologik nutq shaklida bo'lishi. Unda ko'chirma gaplar, undalmali, kirish so'zli, ajratilgan bo'lakli gaplar, qo'shma gap bo'lmasligi lozim.
2. Matn hajmi 1-4-sinf o'quvchilarining o'qish sur'atiga asoslangan bo'lishi.
3. Matn mazmuni bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lishi.
4. Diktant matni o'quvchilarga u yoki bu haqda bilim berishi.
5. Tanlangan matn g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lishi, bolalar hissiyotiga ta'sir qilishi.
6. Matn tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi.
7. Matnda o'rganilayotgan hodisa kamida 5-6 marta uchrashi.

Shu kabi diktantlar uchun matn tanlash 4-sinf "Ona tili" darsligida berilgan bir qancha mashqlar borki, bular yuqoridagi tamoyillarga to'liq rioyaqilingan holda o'z ifodasini topgan. Shunday mashqlardan havola qilamiz. M:

20-mashq. Matnni o'qing. Har bir gapda takrorlanib kelayotgan kitob so'zining qaysi kelishikda ekanini ayting. Uni ajratib ko'rsatilgan so'z bilan birga ko'chiring.

Kitob o'z do'stining dilini **og'ritmaydi**. Kitobning **suhbatidan** inson foyda topadi. Bunday fayzli foydani boshqa hech qayerdan topib bo'lmaydi. Kitobni **o'qigan** inson o'tmishdan va kelajakdan ogoh bo'ladi. Ajdodlarimiz o'z merosini kelajak avlodga kitoblarda **qoldiradi**. Inson uchun kitobdan **azizroq** va **yoqimliroq** suhbatdosh yo'qdir. Shuning uchun ham: „Kitob aql qal'asidir“, deganlar.

Kelishik qo'shimchalari qanday vazifa bajaryapti?

qal'a – qasr, qo'rg'on.

33-mashq. Matnni o'qing. So'roqlar yordamida tushum kelishigidagi otlarni toping. Ularni o'zi bog'langan fe'l bilan alohida-alohida birikma tarzida ko'chiring.

HAYVONOT BOG'IDA

Yakshanba kuni dadam bilan hayvonot bog'iga bordik. U yerda turli hayvonlarni, xilma-xil qushlarni, baliqlarni va boshqa jonivorlarni ko'rdik. Hayvonot bog'ida cho'milayotgan oq ayiqni, chiroyli patli tovusni, sakrab, yugurib yurgan maymunni, uxlab yotgan sherni tomosha qildik.

(G`unchadan)

Bu kabi mashqlardan sinf ishida diktant olib, o'quvchilarning imloviy bilimlarini nazorat qilish mumkin. 4-sinfda bunday matnlar salmoqli hisoblanadi.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. **Ta'limiy diktantlar** – bilim berishga yo'naltirilgan diktantlar.
2. **Tekshiruv diktantlari** – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta'limiy diktantlarni o'tkazish vaqtini, o'rnini, turini o'qituvchining o'zi belgilaydi. Ta'limiy diktantlar uchun darsning ma'lum bir qismi (5-10 daqiqasi), ba'zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Ta'limiy diktantda o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beradi. Har qanday yo'l bilan xatoning oldini olish chorasi ko'riladi. Masalan, 1-sinfda **a** va **o** unlilari o'rganilayotgan darsda bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili o'tkaziladi. **Baho, bahor** so'zlarining birinchi bo'g'inida **a** harfi yozilishini o'quvchilar bilib olgach, o'quvchilardan biri shu so'zlarni xattaxtaga yozadi. So'ng so'z o'chirib tashlanadi, shundan keyin aytib turib yozdiriladi.

Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ta'kidiy diktant.
2. O'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.
6. Rasm diktant.
7. Lug'at diktant.
8. Ijodiy diktant.

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5-6 marta o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinfda olib boriladigan tekshiruv va ta'limiy diktantlar Q.Abdullayeva rahbarligida yaratilgan "Diktantlar to'plami" (Toshkent: "Viktor press" nashriyoti, 2011-yil.)dan foydalangan holda tashkil qilinmoqda. Bu metodik qo'llanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yaqin ko'makdshdir. Bu qo'llanmada 4-sinfda o'tkaziladigan tekshiruv va ta'limiy diktant turlari bo'yicha o'qitish usullari o'z ifodasini topgan.

Orfografik malakalarni shakllantirishda mazkur qo'llanmadan tashqari turli manbalar asosida matn tanlash imkonini yaratadi. Matn tanlash uchun tavsiya qilinayotgan tamoyillarga mos bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Masalan, 4-sinfdan tahlil uchun tanlangan mashqlardan ham tekshiruv diktanti sifatida foydalanish va orfografik tahlil usulini qo'llash mumkin.

Ta'kidiy diktantdan qoidani tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli

yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

Ta'kidiy diktant uchun mashq tanlashda ham yuqoridagi tamoyillarga amal qiliish lozim.

M: 26-mashq. Matnni o'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni aniqlang. Kelishik qo'shimchasi otni qaysi so'z bilan bog'lagan?

Barnoning lunjlari osildi. U buvisining oldiga keldi:

— Buvi, Munira yomon qiz ekan. Ko'chamizdagi gulni ko'chirib ketdi.

— Munira ko'chamizning fayzini buzibdi-da, — dedi buvisi.

Shu kuni Barnoning chiroyi ochilmadi.

Kechga yaqin gulzorga kirdi. Gulsafsarning tagini yumshatdi, uni asta ko'chirib oldi. So'ng Munira ko'chirib ketgan gulning o'rniga o'tqazdi.

(Latif Mahmudovdan)

Qaratqich kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan soz bilan birga ko'chiring. Qaratqich kelishigi qo'shimchasini tegishlicha belgilang.

Namuna: Barnoning lunjlari

Ushbu mashqdan ta'kidiy diktant o'tkazish mumkin bo'lib, bu ham o'quvchilarning imloviy malakasini takomillashtiradi.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydilar (ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o'zlari mustaqil yozadilar.

Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, “Kitob – bilim manbai” – Kitob: Ki-tob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida **k, i**; ikkinchi bo'g'inida **t, o, b** tovushlari bor. Oxirgi **b** tovushi **p** tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda **b** yoki **p** tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning

uchun soʻz oxiridagi **i** tovushini qoʻshamiz va aytamiz: **kitobi**. **B** tovushi yozilar ekan deb izohlanadi.

Bu diktantda oʻquvchilar qoidalarga oid soʻzlarning tagiga chizadilar. Bu diktant uchun ham matnlar darslikda va qoʻllanmalarda berilgan.

Saylanma diktantda oʻquvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning oʻqituvchining topshirigʻiga mos qisminigina (oʻrganilgan qoida asosida yoziladigan soʻzlarni, soʻz birikmalarini) yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan soʻzlarnigina yozish (1-sinf), qaratqich kelishigidagi soʻzni u bogʻlangan ot bilan yoki tushum kelishigidagi soʻzni u bogʻlangan feʼl bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant oʻquvchilarda imloviy ziyraklikni oʻstiradi.

23-mashq. „Tulki va Turna“ ertagidan olingan parchani oʻqing.

Tulkining boshiga musibat tushdi. Tomogʻiga suyak qadaldi.

Turna Tulkining tomogʻidan suyakni olib tashladi. Tulki oʻlimdan qutuldi. Ular doʻst boʻlishdi.

Koʻchiring. Otlarni aniqlab, qaysi kelishikda ekanini qavs ichida koʻrsating.

Otlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang.

Turna toʻgʻri ish qildimi?

Matndagi otlarni qavsda berilgan kelishikda qoʻllab oʻqing. Shu otlarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan koʻchiring.

Erkin diktantda oʻquvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini oʻzgartirish, bir soʻzni unga yaqin maʼnoli soʻz bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3-5 qisimli matn tanlanadi. Oʻqituvchi avval matnni bir marta ifodali oʻqib beradi, soʻngra matn mazmuni yuzasidan suhbat oʻtkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta oʻqib beriladi, oʻquvchilar uning mazmunini yozadilar.

Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, oʻquvchilar nutqini oʻstiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki oʻzini koʻrsatib oʻtkaziladi: predmet rasmi koʻrsatiladi, oʻquvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qoʻyadilar,

ish shunday davom etadi (Birinchi soʻz bosh harf bilan, qolganlari qoidaga koʻra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda oʻrganilgan qoidani, ayniqsa, oʻquv yili davomida oʻrganiladigan imlosi qiyin soʻzlarni toʻgʻri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni oʻquvchilar qanday oʻzlashtirganliklarini sinash maqsadi koʻzda tutiladi.

Oʻqituvchi darsning maqsadi va malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

4-sinfda rasm asosida yoziladigan mashqlar koʻpchilikni tashkil qiladi. Bu esa oʻquvchilardan imloga doir qoidalarni chuqur oʻrganish va tahlil qilishlarida muhim taʼlimiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda leksik-orfografik, morfologik-sintaktik, analitik-orfografik tahlil turlaridan foydalaniladi.

2.3. Orfografik mashqlarni tahlil qilishda interaktiv metodlardan foydalanish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan taʼlimning interfaol usullari taʼlim jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, oʻqituvchining erkin va majburiyatsizligini, eng asosiysi, oʻquvchi uchun oʻta qizqarliligi va samaradorligini taʼminlab bera oladi.

Pedagogik texnologiyalarning qoʻllanilishini majburiy grafika mashgʻulotlari jarayonini beixtiyor psixologik oʻyin yoki musobaqaga aylantirib, oʻquvchini biroz boʻlsada fikr yuritishda oʻz fikrini boshqa oʻquvchiga aytishga, umuman, sinfxonada kechayotgan baxs-munozaralarga befarq boʻlmasdan, faol ishtirok etishga undaydi.

Anʼanaviy usulda tuzilgan oʻquv mashgʻulotlari oʻquvchining faqat bilim olishiga talab qoʻysa, taʼlimning pedagogik texnologiyalarida bilim bilan birga taʼlim samarasini oshirishda ijodiy, mustaqil fikrlashga oʻrgatish ham yuqori oʻringa qoʻyiladi. Bunda mashgʻulot mobaynida oʻqituvchi va oʻquvchi munosabatidagi anʼanaviy-majburiy itoatkorlik oʻrnini ongli intizom egallashiga katta eʼtibor qaratiladi. Buning uchun oʻquvchida ijodiy, mustaqil fikrlash

ko'nikma va malakalarini singdirib borish lozim. Bu borada quyidagilarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

- ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiya yordamida tashkil etishini talab etadigan ma'lum tizimli yondashuvlar tamoyillarini;
- interfaol ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarini samarali qo'llash zaruriyati haqidagi ilg'or pedagogik g'oyalarni;
- o'qitish jarayonini faollashtirish va jadallashtirish hamda interfaol ta'limda pedagogik texnologiyalar nazariyasini;
- ijodiy tafakkurni rivojlantirish nazariyasini;
- o'quvchi shaxsini ijodiy rivojlantirish nazariyasini.

Umuman olganda, interfaol ta'limdan foydalanib o'qitishda yuqori rivojlantiruvchi samaraga erishish mumkin, agar:

- interfaol ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy uslublari ta'lim oluvchilarning mustaqil, ijodiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida qo'llanilsa;
- interfaol ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonini ta'lim oluvchilarning haqiqiy o'quv imkoniyatlarini aniq hisobga olgan holda, ularda bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan mustahkam qiziqishni shakllantirish ta'minlansa;
- interfaol ta'lim tizimida o'qitish jarayoni murakkab aqliy faoliyat sifatida qaralib, u faqatgina andozali mashg'ulotdagi da'vat, anglash, fikrlash bosqichlari to'g'ri amalga oshirilgandagina to'laqonli bo'ladi, deb qaralsa;
- interfaol ta'lim tizimida amaliy mazmunga ega bo'lgan grafik tushunchalarni o'qitishdan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanilsa.

Interaktiv so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, «**Interakt**», ya'ni, **Inter** - bu «o'zaro», «akt» - harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini bildiradi.

Endi interaktiv metodlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni

o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr-mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi.

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikriash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ-ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media-ta'lim metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

- *ishtirokchilarning tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o'yinlar;*
- *ishtirokchilarning soni bo'yicha yakka, juftlikda, kichik guruh, kata guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzidagi o'yinlar;*
- *o'yin jarayoni bo'yicha -fikrlash, o'y lash, topag'onlik, harakatlar asoslangan,*

musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

- *vaqt me'yori bo'yicha - dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.*

Ayrim didaktik o'yinli dars shakllari:

- *ishchanlik o'yini darsi* - mavzu bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi;

- *rolli o'yin darsi*- mavzu boyicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;

- *teatrlashtirilgan dars* - mavzu bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi boyicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish;

- *«kim oshdi savdosi» darsi* -o'quv fani, ayrim bo'limi boyicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko`proq bilishini namoyish etish;

- *yarmarka darsi* - mavzuni bo'laklarga bo'lish, oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan darslar;

- *o'yin darsi* – mavzuni sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

- *integral (integrallashgan) dars*- boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay holda mavzular boyicha tashkil qilingandars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faollikni ta'minlaydi.

4-sinf ona tili darslarida orfografik mashqlarni tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiya usuli bo'lmish interfaol metodlarni qollash har jihatdan ham ta'lim samaradorligi ortadi, ham o'quvchilar faolligi ko'rinadi.

Orfografik mashqlarni tahlil qilishda qo'llash mumkin bo'lgan bir qancha interfaol metodlarni ko'rib chiqamiz.

Kichik guruhlarda ishlash usuli

Bularga: «fikriy hujum», sinektika, mojaro metodi, «dumaloq stol», «uch bosqichli intervyu», muammolarni hal qilish metodi, «stol o'rtasidagi ruchka», galeriyani aylanish, «akademik munozara», «qor bo'ron» metodi, «asalari galasi», «kritik vaziyatni tahlil qilish» va boshqalar kiradi.

Bu metodlar bo'yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur.

Ushbu guruh metodikalari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni nazardan qochirib turish, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish, o'quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning qiymati yangi o'quv axborotini ishlab chiqish va mustahkamlashdan iborat.

Maqsadi.

- O'quvchilarni ko'proq jalb etish va ularning bir-biridan o'rganishiga imkon berish.
- Yo'l-yo'riq berib turadigan murabbiyni «sahnadan» chiqarib yuborish.

Afzalliklari:

- O'quvchilarga o'z g'oyalari va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashish uchun imkon beradi.
- Kichik guruhlarda o'quvchilar katta guruhlarda aytishlari mumkin bo'lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.

O'quvchilar tajriba va g'oyalar bilan o'rtoqlashishlari mumkinki, bu- bilimlarni kengaytiradi va mavjud yondashuvlarni o'zgartiradi.

Diqqat markazni pedagogdan (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi murabbiydan) qatnashchilarga ko'chiradi.

O'quvchilarni o'qish uchun ko'proq mas'uliyatni o'z ustlariga olishga majbur qiladi.

Kamchiliklari:

- ancha ko'p vaqt va qo'shimcha joy bo'lishini talab qiladi;
- o'quvchilarning birortasi boshchilik qilishga o'ta boshlashi, agar guruh bunga qarshilik ko'rsatmasa, uning ustidan nazorat qilishni o'z qo'liga olishi mumkin;
- guruh o'ziga berilgan topshiriqlardan chalg'ib, yo'l-yo'riqlarga aniq amal qilmasligi yoki topshiriqlarni noto'g'ri tushunishi mumkin.

Pedagogga (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi murabbiyga) maslahatlar:

- topshiriqni aniq va ravshan qilib ta'riflab bering, uni hamma tushunib olganiga ishonch hosil qiling;
- o'quvchilarga ularning sihfda joylashib olishlari uchun vaqt bering va shundan keyingina topshiriq ustida ishlay boshlashga ruxsat bering;
- yo'l-yo'riqlarni loaqal bir marta takrorlang;
- o'quvchilarning yo'l-yo'riqlarga nechog'li aniq amal qilib borishayotganini va topshiriqlardan chetga chiqishmayotganini qayta-qayta tekshirib ko'ring.

«Dumaloq stol» metodi

Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'ylab o'tkaziladi. Har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'yadi va varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Hamma o'quvchilar o'z javoblarini yozib qo'yishadi, keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchining bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin. Bu metod asosida orfografik mashqlarni tahlil qilish va umulashma xulosa chiqarish mumkin. 4-sinfda bu metod bo'yicha quyidagicha topshiriqlar berilishi mumkin:

- Otlarning egalik qoshimchalari bilan ifodalanishiga misollar keltiring.
- Kelishik shakllarini sanang.
- Qaysi kelishik qo'shimchasi so'z o'zagiga qo'shilganda tovush o'zgarishi kuzatiladi?
- Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini tushuntiring?
- Narsa-buyumning ish-harakatini bildirgan so'zlarga misol ayting.
- Belgini bildirgan so'zlar qaysilar, ular qanday so'roqqa javob bo'ladi?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo'yilgan savol, bu - javobning yarmisini o'ziga jo qilgan savoldir.

«Ruchka stol o'rtasida» metodi

Butun guruhga topshiriq beriladi. Har bir o'quvchi bitta javob variantini bir varaq qog'ozga yozib, uni qo'shnisiga beradi, o'z ruchkasini esa, stolning o'rtasiga surib qo'yadi.

Topshiriqqa misol:

O'qituvchining guruhga beradigan topshirig'ini hayotiy misollar bilan sharhlab berish.

Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko'proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog'ozga yozilgan topshiriq bir o'quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O'quvchi javobni yozib, qog'ozni keyingi o'quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o'ziga ro'baro' qilib, stolga qo'yib qo'yadi. Javobni bilmaydigan o'quvchi qog'ozni keyingi o'quvchiga' uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo'lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo'lishiga bu o'rinda yo'l qo'yilmaydi.

Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog'oz o'qituvchida. U o'sha variantlarni sanab o'tadi.

Variantlar sanab o'tilar ekan, ularning har biri bir yo'la muhokama qilib boriladi:

«Ruchka stol o'rtasida» metodining bir qancha afzalliklari bor:

- o'qituvchi mashg'ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko'rib turadi;
- mashg'ulotga tayyorlanmagan o'quvchi og'zaki muhokama paytida ko'rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;
- bu guruhda olib boriladigan ish bo'lib, o'quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o'z varianti ustida juda uzoq o'ylab o'tiradigan o'quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi. Shuningdek, o'quvchi mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo'ladi;

- o'quvchilar o'z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

Bu metodni ham 4-sinf ona tili darslarida orfografik mashqlarni bajarishda yoki ma'lum bir bo'lim yuzasidan mustahkamlovchi dars uyushtirishda qo'llash mumkin. Masalan "Otalarda kelishik qoshimchalarining ishlatilishi", "Fe'l zamonlari", "Otlarda egalik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi", "Sifatlarning daraja shakllari" kabi mavzularda berilgan orfografik mashqlarni o'rganish va tahlil qilishda qo'llash mumkin. Yuqorida o'z ifodasini topgan mashqlardan foydalanib, bu metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshiruvchi omillardan biri ekanligini unutmasligimiz kerak.

Xullas, agar o'qituvchi interfaol ta'lim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o'qib-o'rganib, o'zlashtirib, o'z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa, takomillashgan Davlat ta'lim standartlarini va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlarini to'la o'zlashtirishlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Demak, har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolalarning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

2.4. 4-sinfda orfografik mashqlarni tahlil qilish darslarini uyushtirish.

So'z turkumlari

(4-sinflar uchun namunaviy dars ishlanma)

Dars mavzusi: So'z turkumlari haqida egallagan bilimlarni mustahkamlash.

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarni ot, sifat, son, fe'l haqida egallagan bilimlarini boyitib, uni hayot bilan bog'lay olishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Mavzuning mohiyatini o'quvchilar ongiga yetkazib berish, ularda birodarlik, hozirjavoblik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalab boorish.

Darsning jihozlanishi: Har bir guruh uchun topshiriqlar yozilgan konvert, "Sehrli kvadratlar" ko'rgazmali quroli, rasmlari raqamlar, savollar majmui, rag'bat kartochkalari.

Darsning shiori: “Kuch – bilim va tafakkurda” I.A.Karimov.

Darsning tashkil etilishi:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- c) sinf tozaligini tekshirish.

Baholash me’zonlari:

Qizil – 5 ball

Sariq – 4 ball

Yashil – 3 ball

Oq – 2 ball

Darsning borishi:

O’qituvchi: - Aziz o’quvchilar! Biz o’tgan darsimizda so’z turkumlaridan ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ya’ni – so’z turkumlari yuzasidan barcha ma’lumotlarga ega bo’ldik. Bugungi darsimizda olgan bilimlaringizni mustahkamaymiz. Buning uchun guruhlariga bo’linamiz.

Ajratish metodi. Har bir guruhga alohida konvert tarqatiladi. Konvertda ot, sifat, son, olmosh, fe’l so’z turkumlariga kiruvchi so’zlarga 10 tadan misol keltirilgan bo’ladi. So’zlarni ikki daqiqa davomida guruhlariga ajratiladi, so’ng guruhlariga quyidagicha jadval tarqatiladi va shart bajarilgach, guruh sardori chiqib, jadvalni doskaga ilib javoblarini izohlaydi.

1-guruh

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l
Kitob	Oppoq	To’rtinchi	Menga	Yozdi
Gul	Nordon	Beshta	Senga	Terdi
O’qituvchi	Qiyshiq	To’qqizinchi	U	Kuyladi
Quyosh	Baland	Uchta	Bizning	So’zladi
ota	muloyim	oltovlon	ularni	tingladi

2-guruh

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l
Daftar	Moshrang	Ikkinchi	Sendan	Uxladi
Olma	Achchiq	O’nta	Ularga	O’qidi

O'quvchi	Yapaloq	Sakkizinchi	Bizga	Yugurdi
Oy	Past	Oltita	Unga	Tushundi
ona	aqlli	yetovlon	sizdan	kechirdi

3-guruh

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l
Qalam	Shirin	Yettinchi	Sizga	Gulladi
Dugona	Ola-bula	O'nta	Bizdan	To'kildi
Tarvuz	Dumaloq	O'n birinchi	Mening	So'zladi
Farzand	Keng	Ikkita	Sen	Ishondi
tuproq	saxiy	birinchi	birinchi	jilmaydi

“Sehrli kvadrat” o’yini. Bu o’yinda quyidagi topshiriqlarni bajargan o’quvchi “sehrli kvadratlar”ga yashiringan so’zni topish uchun bir dona harf yaratish huquqini qo’lga kiritadi. Bunda so’zning qaysi mavzuga doir ekanligi haqida urf bo’lgan yangi kasb nomi.

1-guruhga topshiriq:

Sodda, qo’shma, juft, takroriy otlarga bir daqiqa davomida beshtadan misol keltiring:

- sodda otlar: kitob, gul, daraxt, osmon, o’quvchi;
- qo’shma otlar: qorbo’ron, Beshariq, gultojixo’roz, sadarayhon, beshiktebratar;
- juft otlar: ota-ona, aka-uka, yosh-qari, qo’ni-qo’shni, tevarak-atrof;
- takroriy otlar: tovuq-povuq, osh-posh, qo’y-po’y, choy-poy.

2-guruhga topshiriq:

Atoqli, turdosh otlar, shaxs, o’rin-joy otlarining har biriga bir daqiqa davomida beshtadan misol keltiring:

- atoqli otlar: Toshkent, Termiz, Akbar, Abdujabbor, Navoiy;
- turdosh otlar: o’qituvchi, shifokor, qalam, gilam, shahar;
- shaxs otlari: paxtakor, sinfdosh, suvchi, oshpaz, ishchi;
- o’rin-joy otlari: mehmonxona, mahalla, tuman, shahar, gulzor.

3-guruhga topshiriq:

Sifat darajalarining har biriga beshtadan so’z toping.

- a) oddiy daraja: qizil, keng, yaxshi, katta, odobli.
- b) qiyosiy daraja: yaxshiroq, boyroq, go'zalroq, shirinroq, odobliroq.
- c) orttirma daraja: eng zukko, juda boy, g'oyat qudratli, juda kuchli, yop-yorug.

“Kim zukko” o'yini. Bu o'yinda har bir guruh ishtirokchilari to'rttadan harf aytilish huquqiga ega bo'ladilar va o'quvchilar yashiringan so'zni topish asosida ot so'z turkumini takrorlaydilar.

t	a	d	b	i	r	k	o	r	l	i	k
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Tadbirkorlik so'zining umumiy tahlili. (Bu sahifada o'quvchilar nazariy bilimlarini amalda qo'llaydilar).

1-guruhga topshiriq:

Tadbirkorlik so'zining so'z tarkibi bo'yicha tahlil:

- a) tad-bir-kor-lik – so'z to'rt bo'g'indan iborat;
- b) tadbirkorlik – so'zining o'zagi – tadbir, -kor – ot yasovchi qo'shimcha, -lik – mavhum ot yasovchi qo'shimcha.

2-guruhga topshiriq:

Tadbirkorlik so'zining morfologik tahlili.

Tadbirkorlik – ot, turdosh ot, aniq ot, sodda ot, bosh kelishik, III shaxs birlikda.

3-guruhga topshiriq:

Tadbirkorlik so'zining fonetik tahlili.

T – undosh harf, jarangsiz, portlovchi.

A – unli harf, til oldi.

D – undosh harf, jarangli, portlovchi.

B – undosh harf, jarangli, portlovchi.

I – unli harf, til oldi.

R – undosh harf, jarangli, sirg'aluvchi.

K – undosh harf, jarangli, portlovchi.

O – unli harf, til o'rta.

R – undosh harf, jarangli, sirg'aluvchi.

L – undosh harf, jarangli, sirg'aluvchi.

I – unli harf, til oldi.

K - undosh harf, jarangli, portlovchi.

So'z 12 ta harf, 12 ta tovushdan iborat.

Dam olish daqiqasi.

- Bobo tortdi sholg'omni,

Bir, ikki, uch, lekin torta olmadi.

Kampir tortdi boboni,

Bir, ikki, uch, lekin torta olmadi.

Qizcha tortdi kampirni,

Bir, ikki, uch, lekin torta olmadi.

Kuchuk tortdi qizchani,

Bir, ikki, uch, lekin torta olmadi.

Mushuk tortdi kuchukni,

Bir, ikki, uch, lekin torta olmadi.

Sichqon tortdi mushukni,

Bir, ikki, uch

Birlashganda hammasi

Tortishdilar sholg'omni.

Test

1. To'g'ri yozilgan gaplar qatorini belgilang.
 - a) Qog'ozdan Doniyor qayiq yasadi.
 - b) Doniyor qog'ozdan qayiq yasadi.
 - c) Qayiq qog'ozdan yasadi Doniyor.
2. Qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qatorini belgilang.
 - a) qudratli, barno, suluv, dilbar
 - b) chiroyli, diyor, davlat, yirik
 - c) ulug', havo, qahramon, musaffo
3. Topishmoqda nechta son bor?

Bitta she'rda sichqoncha

To'rt-besh harfni qo'ydi.

Ma'nosiga tushunmay,

Mazasi yo'q deb qo'ydi.

a) 3 ta b) 2 ta d) 4 ta

4. Otlarda nechta kelishik bor?

a) 6 ta b) 5 ta d) 7 ta

5. Qaysi qatordagi tahlil to'g'ri?

a) Mevalar g'arq pishadi.

b) Mevalar g'arq pishadi.

c) Mevalar g'arq pishadi.

6. Fe'llarda nechta zamon bor?

a) 4 ta b) 3 ta d) 5 ta

Rasm asosida “Ertaklar olamiga sayohat” matnini yaratish. (Bunda o'quvchilarning yetarli darajada so'z boyligi, o'rgangan mavzularni amalda qo'llay olish, so'zlarni o'rinli va me'yorida ishlatish, tasviriy vositalardan unumli foydalanish, matn yaratish boyligi kabi ko'nikma va malakalar sinaladi). Sifatlarni topib tagiga chizish topshirig'i beriladi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda Abdulla ismli bir cho'pon bo'lgan ekan. U juda oqko'ngil, soda va mehribon inson sifatida qishlog'ida nom qozongan ekan. O'sha qishloqda Sarvar degan bir yosh yigit yashar ekan. U cho'pon yigitni ko'rolmas, unga har doim yomonlik tilar ekan.

Bir kuni Abdulla ...

Shu tariqa matn davom etadi.

“Ha” yoki “Yo'q” o'yini.

Har bir guruh sardoriga 10 ta savol beriladi. Bu o'yinda hozirjavoblik talab qilinadi. To'xtab qolgan yoki noto'g'ri javob bergan guruhning bali pasaytiriladi.

1-guruh

1. Ot narsaning belgisini bildiradimi? – Yo'q.
2. Sifat Kim? Nima? so'rog'iga javob beradimi? – Yo'q.
3. Ot gapda ega vazifasida keladimi? – Ha.
4. –chi qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimchami? – Ha.

5. Tustovuq so'zi qo'shma otga kiradimi? – Ha.
6. Sonlarning hammasi raqamlar bilan yoziladimi? – Yo'q.
7. Men, sen, u olmoshlari ko'p shaxsni bildiradimi? – Yo'q.
8. Toshkent so'zi o'rin-joy oti hisoblanadimi? – Yo'q.
9. Gul so'zi atoqli otga kiradimi? – Yo'q.
10. Moshrang so'zi maza-ta'mga kiradimi? – Yo'q.

2-guruhga

1. Sifat narsaning belgisini bildiradimi? – Ha.
2. Son Qanday? Qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladimi? – Yo'q.
3. Bog'bon so'zi shaxs otiga kiradimi? – Ha.
4. –mi, -imiz egalik qo'shimchasiga kiradimi? – Ha.
5. O'quvchilar so'zi birlikda kelganmi? – Yo'q.
6. Daraxt so'zi atoqli otmi? – Yo'q.
7. Bosh kelishikning qo'shimchasi bormi? – Yo'q.
8. Achchiq, nordon so'zi maza-ta'mga kiradimi? – Ha.
9. Bog' so'zi soda otga kiradimi? – Ha.
10. Ishchi so'zi narsa-harakatni bildiradimi? – Yo'q.

3-guruhga

1. Fe'l narsaning nomini bildiradimi? – Yo'q.
2. Ega, kesim gapning bosh bo'laklariga kiradimi? – Ha.
3. Qo'shma otlarning barchasi qo'shib yoziladimi? – Yo'q.
4. Biz, siz, ular olmoshlari ko'plik shaxsni bildiradimi? – Ha.
5. Yam-yashil, bus-butun so'zlari shaxs otiga kiradimi? – Yo'q.
6. Xiva orol nomimi? – Yo'q.
7. Adabiyotshunoslar so'zi qo'shma otga kiradimi? – Ha.
8. Muloyim so'zi xil-xususiyatga kiradimi? – Ha.
9. Yigirma birinchi asr so'zi rim raqami bilan yoziladimi? – Ha.
10. Paxtakorlar so'zi birlikda kelganmi? – Yo'q.

Uyga vazifa:

4-sinf “O'qish kitobi”dan biron badiiy asardan parcha ko'chirib, undagi ot, sifat, son, fe'llarni topib, tagiga chizish topshiriladi. O'quvchilarning ishlari baholanib, dars davomida faol qatnashganlar rag'batlantiriladi.

Yuqorida taqdim etilgan bir soatlik namunaviy dars ishlanmasida o'quvchilarga so'z turkumlarini o'rgatishda imloviy mashqlarni tahlil qilish

usullari, dars jarayonida qo'llanilgan interfaol metodlar hamda darsning samaradorligini ta'minlovchi ish turlari o'z ifodasini topgan bo'lib, shu kabi darslarni har bir o'qituvchi tez-tez uyushtirib turishlari zarur. Chunki interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan har bir dars o'quvchilarni faollashtiribgina qolmay, balki ularni izlanishga, topqirlikka, zukko va talabchanlikka chorlaydi.

*Tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, agar darslar so'z, tushuntirish orqali olib borilsa, o'zlashtirish 10 foizni, ko'rsatish, namoyishlar orqali tashkil etilsa, 50 foizni, ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsiy ishtiroki, faolligida kechsa, o'zlashtirish sifati va samaradorligi 90 foizni tashkil etadi.*¹

Ikkinchi bob yuzasidan xulosa.

Ikkinchi bob yuzasidan kelingan xulosa shuki, orfografik mashqlarni tahlil qilish usullarini biz yuqorida ta'kidlangan mashq turlarini xuddi shu tahlil usullari asosida tahlil qilishga e'tibor berildi. 4-sinfda berilgan mashqlarni ham bir muncha tahlil qilishga qaratilgan ish turlari o'z ifodasini topdi. Orfografik mashqlarni tahlil qilishda leksik-orfografik, semantik-orfografik, morfologik-orfografik va sintaktik-orfografik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, orfografik mashqlarni tahlil qilishda interfaol usullardan foydalanish asoslari ham inobatga olindi. Bunda kichik guruhlarda ishlash usullari turkumiga kiruvchi “Davra metodi”, “Dumaloq stol metodi”, “Ruchka stol o'rtasida metodi” kabi metodlardan foydalanib mashqlarni tahlil qilish usullari hamda ta'limiy va tekshiruv diktantlari orqali orfografik malakani takomillashtirish usullariga diqqat-e'tibor qaratildi. Orfografik mashqlarni tahlil etishda darsni ko'rgazmali qurollar vositasida tashkil etish ham nazardan chetda qolmadi.

Demak, dars jarayonini ko'rgazmali tashkil etish va o'quvchilarning shaxsiy ishtirokini ta'minlash bugungi sifati bosqichiga o'tayotgan ta'lim tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

¹ Yoldoshev J. Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim / Boshlang'ich ta'lim, 2010-yil, 4-son, 6-7-betlar

UMUMIY XULOSA

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar bilimni yanada takomilashtirish, til materialini chuqur o'rganish, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon qila olish uchun orfografik malaka va ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, ona tili darslarida imloviy bilimlarni mustahkamlash ko'p jihatdan orfografik tahlillar bilan olib boriladi. Orfografik mashqlar turli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi hamda turli mashqlarni ozlashtirishda, turli xil til materiallarini organishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz bu bitiruv malakaviy ishimizda 4-sinf ona tili darslarida orfografik mashqlarni tahlil qilishga qaratilgan ish turlarini qo'lladik. Bitiruv malakaviy ish mavzusi boshlang'ich sinf ona tili darslarining samaradorligini oshirishda ta'lim sifatini yaxshilash kabi masalalarga bag'ishlangan dolzarb mavzulardan biridir. Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ularning til materiallarini ongli o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, ta'lim maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish va amalda tadbiq etish sohasida jiddiyroq o'ylab ko'rish vaqti kelganligining yana bir dalilidir.

4- sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlarga yo'naltirish lozim bo'lgan tahlil usullari, ya'ni ko'chirib yozuv, diktant tahlili, leksik-orfografik, morfologik-orfografik, leksik-sintaktik, analitek-sintetik, sintaktik-orfografik tahlil tularining ifodalanishidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, demak tahlilning barcha turlari imloviy tur bilan bog'likligi ayon bo'ldi. Shuning uchun, darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars mashg'ulotlarini o'quvchilarning imloviy malakalarini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Fonetika va grammatikadan berilgan bilimlar imlo qoidalarini o'zlashtirish uchun asos bo'ladi. O'rganilgan imlo qoidalarini amaliyotga tadbiq etishga doir mashqlarni izchillik bilan o'tkazib borilishi, bolalar yozganlarini o'zlari tekshirib, xato va kamchiliklarini topa olishlari va ularni to'g'iray bilishga odatlanishlari lozim.

4-sinf ona tili darslari oldiga qo'yilgan davlat talablari va orfografik mashqlar tizimi yuqorida ta'kidlanganidek, ona tili ta'limining turli bo'lim va mavzularida, xususan, so'z turkumlarini o'rganishda, shu asosda so'z tarkibini o'rganish mavzularida, kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rganishda berilgan bo'lib, orfografik mashqlarning barcha turlari: leksik-orfografik mashqlar, morfologik-orfografik mashqlar, orfografik-sintaktik, analitik-sintetik mashqlar, ko'chirib yozuv mashqlarining bir nechta turlari hamda aralash tipdagi mashqlar o'rin olgan. Bu mashqlar o'quvchilarning yoshi, bilim olish qobiliyati, tahlil qila olish usullari hamda axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olib tuzib chiqilgan. Orfografik mashqlarni tahlil qilishning samarali yo'llari va qo'llash usullarini yoritish ishimiz oldida turgan galdagi vazifadir.

Boshlang'ich sinf ona tili mazmuni metodik olimlarning ko'p yillik kuzatishlari tajribasi natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o'qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu mavzu yuzasidan olib brogan izlanishlarimizning xulosalari shundan iboratki, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri imloviy savodxonlikni oshirishda, fikrni ongli ifodalashda, matn mazmunini teran his qilishda orfografik tahlil turlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borish nechog'lik dars samaradorligini ta'minlovchi vosita ekanligi ma'lum bo'ldi. Grammatik qoidalarni o'zlashtirish morfologiya va sintaksis asosida o'zlashtirganligi uchun tilni o'rgatishda matn va gap ustida ishlash markaziy o'rinni egallaydi. Demak, matn va gap ona tili darslarini tashkil etishning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ularning muhim kategoriyalari tilimizdagi ro'lini orfografik mashqlar asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ham shu tahlillar negizida egallaydilar.

Orfografik mashqlarni tahlil qilish usullarini biz yuqorida ta'kidlangan mashq turlarini xuddi shu tahlil usullari asosida tahlil qilishga e'tibor berildi. 4-sinfda berilgan mashqlarni ham bir muncha tahlil qilishga qaratilgan ish turlari o'z ifodasini topdi. Orfografik mashqlarni tahlil qilishda leksik-orfografik, semantik-orfografik, morfologik-orfografik va sintaktik-orfografik tahlil usullaridan

foydalanildi. Shuningdek, orfografik mashqlarni tahlil qilishda interfaol usullardan foydalanish asoslari ham inobatga olindi. Bunda kichik guruhlarda ishlash usullari turkumiga kiruvchi “Davra metodi”, “Dumaloq stol metodi”, “Ruchka stol o’rtasida metodi” kabi metodlardan foydalanib mashqlarni tahlil qilish usullari hamda ta’limiy va tekshiruv diktantlari orqali orfografik malakani takomillashtirish usullariga diqqat-e’tibor qaratildi.

Demak, dars jarayonini ko’rgazmali tashkil etish va o’quvchilarning shaxsiy ishtirokini ta’minlash bugungi sifat bosqichiga o’tayotgan ta’lim tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Olib borilgan tizimli ishlar natijasida 4-sinfda berilgan orfografik mashqlarni tahlil qilish bo’yicha quyidagilarni tavsiya sifatida kiritish mumkin:

- orfografik mashqlarni tahlil qilishda interaktiv metodlarning samaradorlik jihatlarini;
- orfografik mashqlarni tahlil qilishga doir bir qancha pedagogik texnologiyalarni;
- dars davomida qo’llaniladigan didaktik vositalar va ularning imkoniyatlarini;
- orfografik mashqlarni tahlil qilishning turli manbalar asosida olib borish yo’llarini;
- o’quvchilarning imloviy savodxonligini va o’qiganlarini teran mushohada qila olish qobiliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ish turlarini va shu kabi boshqa ta’limiy vositalarni misol keltirishimiz mumkin.

Ishda qo’llangan interfaol metodlarning asosiy mezonlari norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o’qish, o’rganish, seminar-treninglar o’tkazish, o’quvchilarni tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyat yaratish, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun alohida topshiriq va vazifalar berish, yozma ishlar bajarish o’quv jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi Qonuni.//Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.//Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1997.
3. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: „O'zbekiston“, 2000.
4. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: „Sharq“, 1997.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: “Ma'naviyat”, 2011.
6. Karimov I.A. “Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz” -Toshkent: O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” -Toshkent: O'zbekiston, 1992.
8. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi”// “Xalq so'zi” gazetasi, 2010-yil, yanvar.
9. Karimov I.A. “Asosiy maqsadimiz yurtimizda erkin va obod, faravon hayot barpo etish yo'lini qat'iat bilan davom ettirishdir”//“Xalq so'zi” gazetasi, 2007-yil, dekabr.
10. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti//„Boshl. ta'l". jurnali. - Toshkent, 2005. - № 5.
11. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi//„Boshl. ta'l". jurnali. - Toshkent, 2005. - № 5.
12. Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi. –Toshkent: 2010.
13. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, 1984.
14. Abdullayeva B. Interfaol usullardan foydalanish.//Bosh. Ta'l., 12/2010.-B. 16-17.
15. Abdullayeva Q. va b. Diktantlar to'plami.-T.: Viktor press. 2011-yil.
16. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). - T.: O'qituvchi, 2009.

17. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. 4-sinfda ona tili darslari. - T.: O'qituvchi, 2009.
18. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T.: Yangiyo'l poligraph service, 2008.
19. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma.-T.: Akademnashr, 2012.
20. Qosimova K. Va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
21. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T.: Moliya, 2003.
22. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi.-T.: Yangi asr avlodi, 2005.
23. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining morfem lug'ati.-T.: O'qituvchi, 1992.
24. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik (A. Madvaliyev tahriri ostida). – Toshkent: O'zb. mil. ens., 2006-2008.
25. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: „O'qituvchi“, 2004.
26. Yoldoshev J. Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim. // Boshlang'ich ta'lim, 2010-yil, 4-son, 6-7-betlar
27. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: O'qituvchi, 1992.
28. G'afforova T. va b. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. -T.: 2011.
29. Internet manbalari:
www.ziyonet.uz, www.pedagog.uz, www.google.uz, www.terdu.uz